

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

«**Himoyaga ruxsat etildi»**  
Ijtimoiy – iqtisodiy fakul'tet dekani  
\_\_\_\_\_ t.f.n. N.Dexkonov  
2017 y. «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_

Ijtimoiy – iqtisodiy fakul'teti  
5111600 –“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi” yo'nalishi  
kunduzgi bo'lim 4-kurs bitiruvchisi

**Xotamov Nosirjon No'monovichning**

**“TA'LIM TIZIMIDA MILLIY G'OYA: ASOSIY TUSHUNCHА VA  
TAMOYILLAR FANINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI”**

**mavzusidagi  
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**BMI rahbari: katta o'qituvchi,  
B. Tillayev**

**“Himoyaga tavsiya etildi”**  
“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi”  
kafedrasi mudiri                    B.A.Talapov  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2017 y.

**Namangan- 2017**

## **MUNDARIJA:**

<b>KIRISH</b> .....	<b>3-7</b>
<b>I- BOB. MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLAR FANINING TA’LIM TIZIMIGA KIRITILISHI.....</b>	<b>8-30</b>
I.1. Milliy g’oya mustaqilligimizni mustahkamlashning ilmiy-nazariy va g’oyaviy asosi.....	8-16
I.2. Ta’lim-tarbiya tizimida milliy g’oya fanlarini organishning asosiy yo’nalishlari.....	16-30
<b>II BOB. XALQ TA’LIMI TIZIMIDA MILLIY G’OYANING NAZARIY VA AMALIY TOMONLARINI O’RGANISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.</b>	<b>31-51</b>
II.1. Milliy g’oya va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida maktabning o’rni.....	31-42
II.2. O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limida “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani mazmunida.....	42-45
II.3. Mutafakkirlar dunyoqarashlarida komil inson tarbiyasi masalalari-milliy g’oyaning ilmiy-tarixiy ildizi ekanligi....	45-51
<b>XULOSA VA TAVSIYALAR .....</b>	<b>52-55</b>
<b>FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO’YXATI.</b>	<b>56-59</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>60</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliji:** Jonajon O'zbekistonimizda tobora qad ko'tarib borayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni masalalari bilan bevosita bog'liq. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashuvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yosh avlodni, barkamol shaxsni tarbiyalamasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Bu ulug'vor vazifani amalga oshirish, avvalo, yuksak malaka va ma'naviyatga, mustahkam milliy g'oyaga va tafakkurga ega bo'lgan, vatan mustaqilligi va ravnaqi, tinchligi va farovonligi yo'lida fidoiy kishilarni, yoshlarni tarbiyalash va voyaga yetkazishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Shuning uchun ham Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov mustaqilligimizning erta tongidayoq milliy g'oyani yaratish, uning asosiy tamoyillarini yoshlarni ongi va qalbiga singdirish, buning uchun barcha ilmiy, tarbiyaviy, madaniy-ma'naviy imkoniyatlarni safarbar etish zarurligini har jihatdan asoslab berdi: "Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning hurujidan himoyalanish, bunday tojovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda", - deb yozgan I.A.Karimov.<sup>1</sup>

Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi xali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman, deydi I.A.Karimov. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi. Bitiruv malakaviy ishning mavzusining g'oyat dolzarbliji davlatimiz rahbari oldinga qo'ygan vazifalarning mazmun mohiyatini yoritishga, tahlil qilishga qaratilganligidadir. Mazkur bitiruv malakaviy ishda

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2001, – B. 5-6

milliy g’oyani yaxlit falsafiy ta’limot sifatida ilmiy-nazariy sharhlash bilan birga, uning yoshlar tarbiyasidagi muhim ahamiyati ko’rib o’tiladi. Bu o’rinda nazariya va amaliyotning, ta’lim va tarbiyaning yaxlit birinchi masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Shu jihatdan ham o’quvchi yoshlar orasida milliy g’oyani o’rganish omillarini yoritish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev o’zining “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini bиргаликда барпо этамиз” nomli asarida shunday deydi: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.”<sup>1</sup>

Mazkur bitiruv malakaviy ishda, aynan o’quvchi yoshlar orasida milliy g’oyaning mazmun – mohiyati, uning o’rganish omillari, bu ishda ta’lim – tarbiya tizimining, ayniqsa maktablarning o’rni va roli atroflicha ko’rib chiqilishi bilan dolzarb mavzu hisoblanadi. Aniqki barcha bilimlar, fikr tasavvurlar, ma’naviy-ma’rifiy ko’nikmalari shakllantiriladi. Mustaqillik yillari davomida, bevosita I. Karimovning rahnamoligi va g’amxo’rligi bilan ta’lim-tarbiya tizimining hozirgi zamon talablariga labbay deb javob beradigan darajasi yaratildi. 2012 yil fevralida Toshkent shahrida bo’lib o’tgan xalqaro simpozium buni yakdillik bilan e’tirof etdi. Dunyoning 48 ta mamlakatidan vakillar qatnashgan bu anjumanda so’zga chiqqanlar O’zbekistonda, bugun jahonda eng rivojlangan, har jihatdan insonparvarlik g’oyalari bilan ta’minlangan, gumanistik xalq ta’limi tizimi qaror topganligini, bunga o’z ko’zlari va kuzatuvlari asosida ishonch hosil qilganliklarini ta’kidladilar. Ta’lim-tarbiya sohasida erishilgan bu ulkan yutuqlar milliy mustaqillik va milliy g’oya tarannumining ifodasi ekanligi ko’rsatib turadi. Xorijlik nufuzli xalqaro tashkilot nomoyandalari O’zbekistonni xalq ta’limi borasida erishgan marralarini xalqaro ta’lim tizimi uchun ibrat bo’lishligini

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – Б.14.

ta'kidladilar va uni xalqaro miqyosida keng yoyish va targ'ib qilish dolzarb ahamiyatga ega ekanligini takror-takror qayd etdilar. Maktab, uni yosh avlod tarbiyasidagi beqiyos o'rni, o'qituvchi kasbining ulug'vorligi to'g'risida I.A.Karimov bildirgan fikrlar ham ushbu bitiruv malakaviy ishning dolzarb mavzuga bag'ishlanganligini bildiradi. Bu haqda I.A.Karimovning quyidagi fikrlari g'oyat o'rnlidir: "Inson o'z umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qaerda, qanday lavozimda ishlamasin, maktab dargohida olgan ta'lim tarbiyasi uning yyetuk shaxs va malakaviy mutaxassis bo'lib shakllanishida ahamiyatga ega ekani shubhasiz. Muxtasar aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi, "Agarki dunyo imoratchilik va murabbiylikdir. O'qituvchi nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki minglab-minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan, o'z o'quvchilariga haqiqatdan ham hayot mifiktabini beradigan mo'tabar zotdir."<sup>1</sup>

Shunday qilib, milliy g'oya respublikamizdagi umumiy o'rtalik, o'rtalik maxsus hamda, oliy o'quv yurtlarining o'quv rejalarini va dasturlaridan munosib o'rinni olib, o'quvchi yoshlarni g'oyaviy dunyoqarashi va tafakkurini shakllanishida muhim rol o'ynamoqda, shu boisdan ham milliy g'oyani bilish ko'p qirrali omillarini o'rganish va tahlil qilish dolzarb mavzu bo'lib qoldi. Bitiruv malakaviy ishning mavzui mustaqillik g'oyalari bilan bevosita uyg'unlashib ketganligi bilan dolzarblik kasb etadi.

**Ishning o'rganilganlik darajasi:** Eng avvalo I.A.Karimov<sup>2</sup>ning bir qator asarlarida va ma'ruzalarida hamda, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак-маънавият- енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008, – Б.130-131.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқолол, иқтисод, сиёсат, мағкура. Т.1. – Т.: Ўзбекистон, 1996; Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. – Т.: Ўзбекистон, 1996; Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 1996; Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. – Т.: Ўзбекистон, 1996; Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Т.5. – Т.: Ўзбекистон, 1997; Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т.: Ўзбекистон, 1998; Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Ўзбекистон, 1998; Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Т.: Ўзбекистон, 1999; Биз келажакни ўз қўнимиз билан қурамиз. Т.7. – Т.: Ўзбекистон, 1999; Осиёда тинчлик ва

Sh.M.Mirziyoyev<sup>1</sup>larning barcha asarlari ushbu bitiruv malakaviy ish mavzuziga oid masalalarini batafsil tarzda nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilib bergan.

Islom Karimov asarlarining milliy g'oyani mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashdagi yosh avlodning dunyoqarashi va tafakkurini tarbiyalashdagi, ta'lif-tarbiya tizimini yanada rivojlantirishdagi, ma'naviy va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashdagi beqiyos ahamiyatga tayangan holda bitiruv malakaviy ishida mazmun – mohiyati yoritib berilishiga harakat qilindi. Shuningdek, mavzuni asosiy masalalarini yoritishda bu borada izlanishlar olib borayotgan faylasuflar, tarixchilar, sotsiologlarning asarlari, kitoblari, maqolalari va risolalaridan foydalaniladi. “Barkamol avlod orzusi”, 1999, “Ma'naviyat yulduzlari” kabi to'plamlardan Q. Nazarov, S.Shermuhammedov, Sh.To'raev, A. Haydarov<sup>2</sup>larning va boshqa qator adabiyotlar tahlil qilindi va ularda o'quvchi yoshlar orasida milliy g'oyani o'rganish omillari to'g'risidagi fikrlari bayon qilindi.

**Ishning maqsad va vazifalari:** O'quvchi yoshlarda hozirgi davrda, ya'ni globallashuv jarayonida shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborotlashuv sharoitida tashqaridan zo'r berib tiqishtirilayotgan ma'naviy tahdidlarga qarshi g'oyaviy immunitetni shakllantirish zarurligi bilan bog'liq. I.A.Karimov XX asr oxiri XXI asr boshlarida mafkura poligonlari yadro poligonlariga qaraganda ko'proq kuchga esa bo'lib borayotganligini ta'kidlaganda tobora zararli tus olib borayotgan ma'naviy tahdidlarni ham nazarda tutadi. “Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlargacha, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishidagi

---

хамкорликни мустаҳкамлаш йўлида. Т.14. – Т.: Ўзбекистон, 2006, O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Т.: O'zbekiston, 2011; va boshqalar.

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016; Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрга тараққиётни ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017; Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017; Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017;

<sup>2</sup> Назаров К. Қадриятлар тизимининг барқарорлиги ва ўзгаришлар. – Т.: 1994; Шермуҳаммедов С. Фалсафа ва ижтимоий тараққиёт. – Т.: 2005; Тўраев Ш. Маънавий таҳдид: фалсафий таҳлил. – Т.: 2010; Ҳайдаров А. Инсон камолоти ва миллий-маънавий қадриятлар. – Т.: 2008;

ta'siriga bardosh berishi amrimahol”, -deb yozadi I.A.Karimov. O'tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro'y bergan, biz bevosita o'z boshimizdan kechirgan voqealar mafkuraviy jarayonlarning rivoji bu xulosaning to'g'ri ekanini qayta – qayta isbotlab turibdi va isbotlamoqda.

**Ishning ob'ekti va predmeti:** Bugungi kunda yoshlارимиз nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali rangbarang axborot va ma'lumot olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rabb-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularni atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi.<sup>1</sup>

“Yoshlаримизни erkin, demokratik, ma'rifatli, yuksak ma'naviyatli jamiyat barpo etishga chorlaydi. Shu bilan birga bizning ma'naviyatimiz, milliy tafakkurimiz uchun o'ta zararli g'oyalarni yoshlаримиз ongiga kirib kelishga yo'l qo'ymaslik zarurligini o'qtiradi. Muxtasar qilib aytganda, yoshlаримизning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi; milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur”-deydi I.A.Karimov.<sup>2</sup> Xulosa shuki, bitiruv malakaviy ishda ko'rib chiqilayotgan, yoritilayotgan va tahlil etilayotgan masalalar o'zining mohiyati va mazmuni bilan Prezident belgilab bergen vazifalar bilan bog'liq.

**Ishning amaliy ahamiyati:** Shundan iboratki, ushbu ishdan maktab va kollejlarda tarix, ma'naviyat asoslari fanlarini oqitishda va milliy g'oya targ'ibotchilar foydalanishlari tavsiya etiladi.

**Ishning tuzilishi va hajmi:** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati, mavzuga oid tayanch atamalardan iborat.

<sup>1</sup> Каримов И.А.. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008, – B.114.

<sup>2</sup> Каримов И.А.. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008, – B.115.

“Sifatli o’quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didiaktik materiallarning kamligi ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o’rtasida puxta o’zaro hamkorlik va o’zaro foydali integratsiyaning yo’qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi”<sup>1</sup>

**Islom Karimov**

## **I BOB. MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLAR FANINING O’QUV DASTURLARIGA KIRITILISHI**

### **1.1. Milliy g’oya mustaqilligimizni mustahkamlashning ilmiy-nazariy va g’oyaviy asosi**

Insoniyat tarixiy taraqqiyotining tsivilizatsiyalashgan davri biron-bir jamiyatning ezgu g’oyalar va mafkurasiz rivojiana olmasligini tasdiqlab kelmoqda. O’zbekiston o’z milliy mustaqilligini qo’lga kiritgach Islom Karimov tashabbusi bilan o’zbek xalqi o’z oldiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish kabi maqsadlarni qo’ydi. Ana shu maqsadni amalga oshirish, yurtimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etish ehtiyoji tug’ildi. Buning uchun bizga yot va begona g’oya tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga yetkazish, bu yo’lda g’oyaviy, mafkuraviy bo’shliq bo’lishiga yo’l qo’ymaslik, mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini ta’minalash uchun milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishni taqozo etdi.

Mustaqillikning ilk yilidanoq mustabid “kommunistik g’oya”dan voz kechildi. O’zbekiston xalqi o’z milliy g’oya negizlariga tayangan holda rivojlanish yo’lini tanladi. Buning o’ziga xos sabablari mavjud bo’lib, ularni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Mustaqillik tufayli mamlakatimiz xalqi o’ziga xos yo’lni tanlash huquqiga ega bo’ldi. Bu xalqimizning ma’naviy merosi, qadriyatlarini qayta tiklash imkoniyatini berdi.

2. “Mustabid” totalitar tuzum “kommunistik g’oya”si o’zbek xalqini ma’naviy merosi, urf-odatlari, qadriyatlari, ma’naviyatidan begonalashtirish

siyosatini olib bordi. Endilikda ana shu asoratlardan xalos bo'lish ehtiyoji paydo bo'ldi.

3. Har qanday davlat, jamiyat, xalq maqsadsiz yashay olmaydi. U rivojlanish uchun ma'naviy asoslarni belgilab olishi zarur. Bu maqsad xalqning milliy-ma'naviy g'oyalarida aks etgan bo'lib, milliy g'oyani o'rganish zaruriyatga aylandi.

4. Jamiyat taraqqiyotida turli xil g'oyalar hukmronlik qilib kelgan bo'lib, g'oyaviy maqsadlar tufayli har xil salbiy oqibatlarni yuzaga keltirgan. Ana shu g'oya bilan g'oyaning, maqsad bilan maqsadning, fikr bilan fikrning farqini bilish uchun milliy g'oyani o'rganish lozim.

5. Shaxs, inson, ijtimoiy guruh, qatlam, xalq, millat, davlat maqsadi, orzu intilishi, qarashlari bir-biridan farq qilganidek, uning qanday maqsad va g'oya ekanligiga qarab baho beriladi.

6. Ayrim g'oyalar ma'lum bir millat, xalqning maqsad, intilishlarini hisobga olmasdan o'z g'oyalarini "singdirishga" urinadi, bunday yot yoki yovuz g'oyalardan ogoh bo'lish uchun milliy g'oyani o'rganmoq kerak.

7. Bugungi kunda dunyoda mafkuraviy kurash, inson ongi va qalbi uchun kurash ketar ekan, ayrim yot g'oyalar yoshlarni o'ziga rom qilib o'z shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishga harakat qilayotganliklari boisdan ham milliy g'oyani o'rganish zaruriyatga aylandi. "Kelajagi buyuk davlat"ni barpo etish milliy g'oyani singdirish orqali amalga oshiriladi.

Islom Karimov bu borada: "Oldimizga qo'ygan oljanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning hurujidan himoyalananish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda"<sup>1</sup> -degan edi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ватан равнаки учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9. –Т.: Ўзбекистон. 2001. –Б.220.

Yoshlar ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 2000 yil 8 iyunda «Fidokor» gazetasi muxbir savollariga bergan javoblarida mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmasligi, hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'layotganligini ta'kidlab o'tgan edi. «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasi mazmunini xalqqa, yoshlar tarbiyasi jarayoniga olib kirish bugungi kunning dolzarb masalasi qilib qo'yildi. Bu avvalo uch jihatni o'z ichiga qamrab oladi:

1) Milliy dasturning asosiy maqsadi barkamol shaxsni shakllantirish. Aslida bu Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ham ustuvor jihatidir.

2) Milliy dastur maqsad va vazifalarining amalga oshirilishi huquqiy davlat qurish, tafakkur va munozara madaniyatini rivojlantirish, shaxs ichki dunyosini boyitishdan iboratdir.

3) Milliy g'oyani ijtimoiy ong sifatida shakllantirishni davr taqozo etmoqda.

Shuningdek, Islom Karimov «Jamiyatni baxt-saodatga, buyuk va yorug' kelajakka boshlab boruvchi yagona kuch - ma'naviyatdir» - degan edilar. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilar tufayli jamiyat yangilanib, kuchayib, taraqqiy topib boradi. Yoshlar ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni milliy g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi» kengaytirilgan majlisining 2000 yil 30 sentyabrdagi «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar

fanini uzluksiz ta’lim tizimiga joriy etish haqida»gi Qaroriga ko’ra 2000-2001 o’quv yilining 2-choragidan e’tiboran umumiy o’rtta ta’lim muassasalarining o’quv rejasidagi 7-9-sinflar uchun «Ma’naviyat asoslari» o’rniga «Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari» o’quv fani joriy etildi. 2000 yil 9 oktyabrda Xalq ta’limi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirliklari bu masalani yana bir bor ko’rib chiqib uni hayotga joriy qilish uchun zaruriy ishlarni belgilab oldilar.

2001 yil 18 yanvarda O’zbekiston Prezidentining “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo’yicha ta’lim dasturlarini yaratish va Respublika ta’lim tizimiga joriy etish to’g’risida»gi Farmoyishi qabul qilindi.<sup>1</sup>

“Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” nomi bilan kiritilgan o’quv fani mustaqilligimizni g’oyaviy – nazariy va ilmiy- amaliy ifodasi bo’ldi. Bu g’oya dunyo hamjamiyatidan munosib o’rin egallab borayotgan mamlakatimiz xalqining mustaqillik yillarida orttirgan tajribalari, bosib o’tgan murakkab va jonli yo’li, milliy tafakkuri va ma’naviyatimizdagi yuksalishlarning mantiqiy natijasi, xalq irodasining mujassam ifodasi sifatida shakllandi. Milliy g’oya va istiqlol mafkurasi O’zbekiston xalqining ezgu g’oya - Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo’lidagi asriy orzu-intilishlari, ulug’ maqsad-muddaolarini o’zida aks ettiradi. Bu g’oya xalqni –xalq, millatni-millat etadigan, uning shonli yo’li, sha’ni-sharafi, or-nomusi, ishonch-e’tiqodini ifodalaydigan g’oyalar tizimidan iborat bo’lib, jamiyatimizni o’ziga xos taraqqiyot yo’li, turmush tarzi, tub manfaatlarini ifodalaydi, ularni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, aytish zarurki, milliy g’oya, uning asosiy tamoyillari birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan vazifani-yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladi gan yaxlit va izchil ta’limotni yoshlarimiz qalbi va ongicha singdirish vazifasini bajaradi. Bu fan milliy g’oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari, tarixiy negizlari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy ildizlari, o’ziga xos nomoyon bo’lish xususiyatlari va qonuniyatları

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 18 январда кабул қилинган «Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар» фани бўйича таълим дастурларини яратиш ва Республика таълим тизимига жорий этиш тўғрисида»ги Фармойиши. // Маърифат. 2001 йил 20 январь.

to'g'risida bilim beradi. Mamlakatimizni mustaqillik yo'lidan rivojlantirish xususidagi asosiy nazariy va amaliy xulosalar I.A.Karimovning asarlarida o'zining teran ifodasini topgan. Ularda jamiyatimizning pirovard maqsadlariga etish yo'llarini aniq ifodalaydigan yaxlit ta'limot-milliy g'oyani mohiyati mazmuni, tushunchasi va tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan isbotlab berilgan. I.A.Karimov asarlarini o'rganish yurtimizda barpo etilayotgan jamiyatning ijtimoiy – ma'naviy poydevorini mustahkamlash, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, yot mafkuralar tojovuziga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zaruriyati milliy g'oyani o'rghanishning taqozo etganligini yaqqol ko'rsatadi.<sup>1</sup>

Xalqimizni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlari sari birlashtirish, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati va ravnaqi uchun doimo ma'suliyat sezib yashashiga, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni bunyodkorlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas tuproq uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish milliy g'oyaning asosiy maqsadidir.

Milliy g'oyani yaratishi mustaqilligimizning mustahkamlashning ob'ektiv zaruriyati va ehtiyoji tarzida yaratildi. Bu g'oya mamlakatimizdagi barcha millat, elatlarlarning, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, siyosiy partiylar va uyushmalarning, tadbirkorlar, yoshlar, faxriylar, ayollar ehtiyoj va manfaatlarini o'zida uyshtiradi, aks ettiradi. Milliy g'oyaning tarixiy va nazariy tahlili shuni ko'rsatadiki, unda g'oya va mafkura tushunchalari, ularning xalqlar va davlatlar tarixiga ta'siri, globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan hozirgi sharoitda g'oya va mafkuraning o'rni kabi dolzarb muammolarni terang anglashga yordam beradi. I.A.Karimov o'zining qator asarlari, nutq va maqolalarida milliy g'oyada ifodalanadigan ulkan bunyodkorlik, kelajak sari og'ishmay olg'a borish, xalqimizni mustaqillik tomon dadil qadamlar borishi to'g'risidagi g'oyalar muntazam ta'kidlab boriladi. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga

<sup>1</sup> Миллий истиқтол ғояси. Аннотацияли библиография (1991-2001 й.й.). – Т.: 2001. – Б. 3.

kiritishi natijasida o'z taqdirining chinakam egasi, o'z taqdirining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi. Ma'naviyatga yangicha munosabat davlat miqiyosida rivojlantirila boshlandi. "Har bir avlod el-yurtining tarixini va obro'yni o'zining farzandlik muhabbati va e'tiqodi, sadoqati va bunyodkorligi, matonati va mardligi bilan barpo etadi,"<sup>1</sup> degan tamoyilni oldinga suradi I.A.Karimov milliy g'oya va mafkura jamiyatimiz uchun naqadar zarur ekanligini, mafkuraviy bo'shliq jamiyat taraqqiyotiga to'liq bo'lishini, mafkurasiz odam, jamiyat va davlat o'z yo'lini yo'qotib qo'yishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi. Milliy g'oya va mafkura jamiyatni, xalqni birlashtiruvchi, bunyodkorlik ishlariga safarbar etuvchi kuch bo'lishi, u xalqni-xalq, millatni millat etishi lozimligini, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchli ekanligini, mafkura o'tishi va kelajak o'rtasidan ko'prik vazifasini o'tashi lozimligini uqtiradi. Shu munosabat bilan ba'lim tizimini isloh qilish, uning yangi modellini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish to'g'risida nazariy va amaliy yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib berdi.<sup>2</sup>

Milliy g'oyaning mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashdagi ahamiyatini izohlashda qo'yidagi masalalarga jiddiy e'tibor berish zarur. Mustaqillik bu eng avvalo huquq, deydi I.A.Karimov. Bu lo'nda qilib aytilgan ta'rifda tom-tom ma'no mayjud. Darhaqiqat, mustaqillik sharofati bilan xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga; o'zining milliy davlatchiligini qurish huquqiga; yaxlit va yangi O'zbekiston deb ataluvchi mamlakatni jahon xaritasida tiklash huquqiga; yer osti va yer usti boyliklaridan o'z xalqi, millati manfaatlari yo'lida foydalanish huquqiga; milliy chegaralarini daxlsizligini ta'minlash huquqiga; xorijiy mamlakatlar bilan o'z milliy manfaatlari va maqsadlariga asoslangan holda xalqaro teng munosabatlar o'rnatish huquqiga; ona tili- o'zbek tiliga davlat tili berish huquqiga; qadimiylar tarixiy yodgorliklarimizni asrab-avaylash va tiklash huquqiga; milliy boy madaniy ma'naviy merosimizni tiklash va

<sup>1</sup> Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлида, Т.4. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б.12

<sup>2</sup> Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. – Т.: Ўзбекистон, 1998.

unga egalik qilish huquqiga va boshqa ko'plab milliy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy huquqlarni qo'lga kiritdi. "Mustaqillik har bir O'zbekiston fuqarosi va vatanparvari uchun eng katta siyosiy, iqtisodiy hamda ma'naviy boylikdir, -deb to'g'ri yozadi M.Abdullaev. Mustaqillik Respublika xalqi, shu yurtning har bir fuqarosiga tinchlik, barqarorlik, hurriyat va ozodlik keltirdi, istiqlol tufayli o'zbek xalqi tarixiy qadriyatlar, ko'hna madaniyat va ma'rifat, an'ana va rasm-rusmlarga yana qayta ega bo'ldi, mamlakatimiz osmoni beg'ubor, baxt-saodat quyosh bilan porloq istiqlolga ega bo'ldi."<sup>1</sup>

Milliy mafkura va milliy g'oyaning mustaqiligidan mustahkamlashdagi beqiyos ahamiyatini yoritar ekan, akademik H.Po'latov shunday deb yozgan edi. "Men o'zbeklarning milliy mafkurasi deganda milliy voqeligimizning mavjudlik qonuniyatlarimizdan kelib chiqadigan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy ehtiyojlari va manfaatlarini, tub ustuvor va salohiyatli muammolarini ilmiy asosda hal etib, rivojlanishimizning maqsadi va vazifalarini belgilash, ularni ro'yobga chiqarishda insonparvar yo'llar, adolatli usullar hamda, vositalarni belgilovchi g'oya va fikrlar mazmunini tushunaman."<sup>2</sup>

Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va istiqlol yutuqlarini mustahkamlash haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, tarixiy, falsafiy va diniy qarashlar majmui, xalqni kelajakka ishonch, e'tiqod ruhida tarbiyalovchi nazariy va amaliy quroq, barcha toifa kishilarini shu maqsad yo'lida birlashtiruvchi g'oyat qudratli ma'naviy hisoblanadi.

Mustaqillik natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda yuzaga chiqan barcha dolzarb muammolarni yangicha tafakkur orqali, falsafiy-nazariy mushohada qilgan va xulosa chiqargan holda, mustaqillikni milliy mafkurasini yaratish lozim, zero ilmiy ob'ektivlik asosida mafkurani yangilash, yangilanish mafkurasini shakllantirish mamlakatimiz siyosiy va ma'naviy hayotini sog'lomlashtirishdir.

<sup>1</sup> Абдуллаев М. Маданият маънавият, маърифат. //Мулоқат журнали, 1998, 3-сон, – Б.11-13.

<sup>2</sup> Пўлатов X. Ўзбек мафкураси. //Мулоқат журнали, 1991, 6-сон, – Б.12-14.

Milliy g’oya hamma tarixiy davrlarda, ayniqsa tarixning burilish pallalarida ozodlik va mustaqillik uchun kurashning bayrog’i bo’lganligini, mustaqillikni qo’lga kiritgan millat yagona milliy g’oya bayrog’i ostida jipslashganligini tadqiqotchilar ta’kidlab o’tadilar. Masalan, N. Raximboboev, U. Qudratovlar “Insoniylik xalq baxtini o’ylashdir” (mustaqillik mafkurasi va o’zlikni anglash) nomli maqolasida ushbu fikrni quyidagicha bayon etadilar: Buyuk bobomiz AmirTemurning “millatning ulug’ martabasini, saodatini saqlamoq, uning dardlariga darmon bo’lmoq asosiy vazifa” ekanligi to’g’risidagi fikrini naqadar haqiqat ekanligini ta’kidlab, mustaqillik mafkurasi jamiyat a’zolarining umumiyl manfaat va muddaolarini o’zida aks ettiruvchi, mujassamlashtiruvchi, ularning xatti-harakatlarini, faoliyatini, fikr-zikrini yagona maqsadga – mustaqillikni mustahkamlashga yo’naltiruvchi g’oyalar va bilimlar majmuasi ekanligi, milliy g’oyani anglash esa har bir shaxs o’zligini anglashning mezoni bo’lishi lozim, degan xulosani chiqaradi. Milliy o’zlikni anglash esa millatning abadiyligini ta’minlab turuvchi mustahkam qo’rg’on ekanligini alohida uqtiradi.<sup>1</sup>

Ma’lumki milliy g’oya o’z-o’zidan, to’g’ridan – to’g’ri yoshlar ongiga, tafakkuriga kirib bormaydi. Mustaqillikning dastlabki yillarida milliy g’oyani, uning tub mohiyatini to’la anglab yetmagan, Vatan, el-yurt manfaatidan o’zining shaxsiy huzur-halovatini ustun qo’yuvchi yoki sobiq tuzumdagi iltifotli imtiyozlarni qo’msab ish yuritgan kimsalar kam emas edi. Eski kommunistik mafkura qobig’ida qolgan va shu asosida fikrlaydigan va faoliyat ko’rsatayotgan shaxslarning tafakkuriga, ongu shuuriga mustaqillik mafkurasini singdirish, shu ruhda tarbiyalash muhim vazifalardan biri edi. Buning uchun nafs balosidan qutulmoq zarur edi. Zero sog’liq aql-zakovatdan nafsning ustun kelishi nafaqat ma’lum rahbar yoki guruhning fojeasi, balki millat ruhini sindiradigan, uning kelajagiga xavf soladigan zararli illatdir. Mustaqillik esa sog’lom g’oya, sog’lom tafakkur va sog’lom faoliyat asosidagina yanada mustahkam asoslarga ega bo’ladi.

<sup>1</sup> Рахимбобоев Н, У. Кудратов. Инсонийлик-халқ бахтини ўйлашдир. (мустакиллик мафкураси ва ўзликни anglash). //Гулистан журнали, 2000, 66-сон, – Б.14-15.

Milliy g’oya, milliy istiqlol mafkurasi kishilar tafakkur tarzi, dunyoqarashini o’zgartirishi, ular ongidagi fikr sayozligi va qo’rquv o’rnini hurfikrlilik va ishonchli xizmat qilishi lozim. O’zbekiston o’z istiqlol va taraqqiyot yo’lini o’zi tanlab oldi va bu yo’l “O’zbek modeli” nomi bilan jahonda e’tirof etildi, shunga munosib ravishda milliy g’oyani, mafkurasini ham yaratdi.

## **1.2. Ta’lim-tarbiya tizimida milliy g’oya fanlarini organizhning asosiy yo’nalishlari**

O’zbekistoning mustaqil taraqqiyot strategiyasining, o’zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini, milliy g’oyani yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustivor yo’nalishlaridandir.

Istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat xayotining barcha soxalarini qamrab olish, ta’lim-tarbiya, targ’ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqazo etiladi. Ta’lim-tarbiya sohalari milliy g’oya va mafkurani yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yo’nalishlaridandir.

Bunda quyidagi vazifalar ko’zda tutiladi:

- ta’lim muassasalarida bolalar va talabalarining yoshiga mos ravishda milliy g’oya va mafkurani singdirishda differentsial pedagogik-psixologik dasturni yaratish;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o’quvchi-talabalar ongida milliy g’oya va istiqlol mafkurasinishakllantirish ishlarini uzliksiz tarzda olib borish;
- O’quv dasturlari, darslik va qo’llanmalarda milliy g’oya va mafkura g’oyalarini teran aks ettirish;
- Maktab, akademik litsey, kasb-xunar kolleji, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko’tarish;
- Pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilmlarini chuqurlashtirish.

Ta’lim-tarbiyaning har bir alohida bosqichi o’z navbatida milliy g’oyaning yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o’ziga xos omillarini nazarda tutadi.

Yoshlar qatlamining milliy g'oya va asosiy tushhunchalarga munosabati uning yoshlar ongiga qanday ta'sir etayotgani, qanday yangi- yangi tushunchalarni shakllanishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun avvalombor, milliy mafkura yoshlarga qanday singdirilayotganligiga e'tibor berish kerak. Yoshlar jamiyatining shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ushbu guruh vakillarining ongi shakllanish jarayonida bo'lib, ular turli xil g'oyalar ta'siriga tez beriluvchan bo'ladilar. Ular shuningdek, o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibligi holatlarini aniqroq sezadilar. Kattalar tomonidan falsafiy qabul qilinadigan har qandayadolatsizliklar yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli ziyon yetkazishi mumkin. Yoshlar o'zlarining ijtimoiy-ruhiy va boshqa jihatlariga ko'ra, jamiyatda tez o'zgaruvchan sharoitga moslashish qobiliyatining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Ammo o'tish davrining ta'siri ularni ham chetlab o'tgani yo'q va bu yoshlar orasida ishsizlikning yuqori darajada ekanligi bilan asoslanadi. Yoshlar orasida ayniqsa, qishloq joyida istiqomat qiluvchi yoshlar orasida shunday bir ijtimoiy qatlam yuzaga kelmoqdaki, ushbu qatlam vakillari ancha jiddiy moddiy muhtojlikka va ruhiy qiyinchiliklarga duchor bo'lганlar. Maxsus mutaxassislik tayyorgarligiga va malakasiga ega emasliklari bois, ularning erkin bozor iqtisodiyotiga moslashishlari qiyin kechmoqda. Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga ishonchsizlik yoki umuman befarqlik bilan qaraydilar. Ular yoshlar orasida o'zlarining ko'proq bir amallab kun kechirish qadriyatiga yo'naltirilgan ruhiy holati bilan ajralib turadilar. Ushbu guruh o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechilmaganligi bois yaqin keljakda ijtimoiy taranglik vaziyatini tug'diruvchi asos bo'lib xizmat qiluvchi qatlamni yuzaga keltirishi mumkin, yoshlar muhitida ularning elitar, o'rta, kam ta'minlangan qatlamlarga bo'linish tendentsiyasi kuchaymoqda. Yoshlar ongida moddiy manfaatlarning ustunligi kuzatilmoxda. Ularning ma'naviy va ahloqiy sifatlari past ijtimoiylashuv institutlarining oila, ommaviy axborot vositalari, armiya, ijtimoiy birlashmalar va boshqalar faoliyatida yakdillik yo'q. Aksincha. Ular mutlaqo teng bo'lмаган sharoitlarga ega yoki bir-biri bilan

raqobatda faoliyat yuritmoqdalar. Xususan, ommaviy axborot vositalari yoshlar bo'sh vaqtining ko'p qismini nazorat qilib, ular ma'naviy dunyosini shakllantirishda, yangi qadriyatlar yo`nalishini belgilashda muhim vosita sifatida yuzaga chiqadi.

Milliy g'oya va milliy mafkura kontseptsiyasida ham bu masalaga e'tibor qaratilgan. Chunonchi, ushbu qadriyatlarni xalqimiz qalbi va ongiga singdirishning vositasi ko'rsatiladi. Bular: "Ta'lim va tarbiya, fan va ilmiy muassasalar, madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar, adabiyot va san'at, din, jismoniy tarbiya va sport, urf-odat, marosim va bayramlar, oila, mahalla, mehnat jamoalari, siyosiy partiylar, nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari. Mazkur vositalar orqali milliy g'oya va milliy mafkurani xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongiga singdirishda qator ishlar amalga oshirilmoqda."<sup>1</sup> Ayniqsa, ta'lim tizimida, adabiyot va san`atga, ommaviy axborot vositalarida bu borada qator ishlar qilinmoqda. Maxsus darslar tashkil etilmoqda, milliy g'oya, milliy mafkurani targ'ib etish bo'yicha alohida ruknlar tashkil etilmoqda. Ammo, ularning samaradorlik va foydalik darajasi qay ahvolda, nima uchun o'tkazilayotgan tadbirlar ko'zlangan maqsadga erishishga imkon bermaypati? Ayrim fuqarolarda jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga nisbatan ijtimoiy qiziqishning sustligi sabablari nimada? Albatta, bu savollarga lo'nda, mantiqan to'g'ri javobni aytish juda qiyin. Qolaversa, fikrlar xilma-xilligi mavjud bo'lgan hozirgi davrda, fuqaroda tafakkur erkinligi uchun shart-sharoit yaratilgan bir paytda u yoki bu masala bo'yicha barchaning fikri bir xil bo'lishi mumkin emas. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, hozirgi paytda milliy g'oya va milliy mafkurani fuqarolar, ayniqsa yoshlar ijtimoiy ongiga singdirishga halaqit qilayotgan omillar to'g'risida ayrim sube'tiv fikrlarni bayon etishni maqsadga muvofiqdir. Buning ayrim sabablari bor va asosiyлари quyidagilardan iborat. Birinchidan, fuqarolarda, xususan ayrim yoshlarimizda ijtimoiy faollik yetishmayapti. Xo'sh, ijtimoiy faollikning o'zi nima? Ijtimoiy

<sup>1</sup> Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan ham qadam bo'lib yashash-bugungi hayotning o'tkir talabi. I.Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar. //O'zbekiston ovozi.-2012.-15 may.

faollik jamiyat fuqarolarining mamlakat va millat oldida turgan strategik maqsadni anglab yetishi, uni o`zining individual muddaolari bilan uyg`unlashtirish orqali erishishi lozim bo`lgan yyetuklik darajasi hamda, bu yo`ldagi amaliy harakatni faollashtirish yo`lidagi intilishdir. Umuman, ijtimoiy taraqqiyotda shaxslarning o`z manfaatlarini qondirish yo`lidagi xatti-harakatlarning ahamiyati bor. Ammo, bunday harakat faqatgina umum davlat va umum milliy manfaatlar bilangina mushtarak bo`lgandagina ko`zlangan maqsadga yetishi mumkin. Bu borada hozirgi O`zbekiston jamiyatidagi holatni qoniqarli hisoblangan holda ancha muammolar mavjudligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Milliy g`oya va milliy mafkurani aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishga halaqit qilayotgan sabablardan yana biri-barcha teng ravishda bu jarayonga tortilmayapti. Jumladan, agar hozir mamlakatimizda 500 mingdan ortiq o`g`il-qizlar maktab, kasb-hunar kollejlari, litseylarni bitirib chiqayotgan va ularning taxminan 15 foizigina oliv o`quv yurtlarida ta`lim olayotgan bo`lsalar, unda yoshlarning katta qismi milliy g`oyani o`z ongiga tizimli ravishda va maqsadli tarzda singdirish huquqidan mahrum bo`lib qolmoqda. Bu juda muhim muammo. Ta`lim tizimiga jalb etilganlar, odatda, yoshlarning eng ijtimoiy faol qismi hisoblanadi.

Yoshlarning qolgan katta qismiga milliy g`oya va milliy mafkuraning mazmun-mohiyatini tushuntirish, ularda ushbu qadriyatlarga nisbatan kuchli ishonch-e`tiqodni shakllantirishdan ham muhim muammo yo`qdir. O`zbek xalqiga xos bo`lgan ayrim kamchiliklar, milliy xarakterimiz, mentalitetimizga mos muammolar ham milliy g`oyani keng jamoatchilik o`rtasida ishonch-e`tiqod darajasiga ko`tarishga imkon bermayapti. Romen Rollenning ta`kidlashicha «Haqiqat hamma halqlar uchun yagonadir. Ammo har bir halqning o`z yolg`onlari bor va ularni milliy mentalitet, deb ataydilar», deganida ma`lum haqiqat aholida, ayniqsa yoshlarda tashabbusni va faollikni oshirishga, o`zining individual qobiliyatlarini namoyon etishga qaratilgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz borki, ularning mazmun-mohiyatini qaytadan tahlil etish payti keldi. Axir, qadriyatlar va urf-odatlar o`zgarmas emasku! Ular yangilanishi, yangi sifatlar bilan boyishi,

boshqa davlat va xalqlarning ilg'or tajribasini ijodiy ravishda o'zlashtirilishi mumkinligini ham esdan chiqarmaslik muhimdir.<sup>1</sup>

Xalqlar va mamlakatlarning xilma-xil manfaatlari-yu intilishlarini tashkiliy tartibga solishga intilayotgan BMT hamda, boshqa xalqaro tashkilotlarning sa'y-harakatlariga qaramay, bu manfaatlarning motivlari va ularga yetishish uchun tanlanadigan yo'llar turliligicha qolavermoqda. Zero, har bir kishshiningadolat va hayotiy muhim maqsadlarga erishish haqidagi tasavvurlari turlichadir. Har xil mafkuralar va ijtimoiy tizimlarning mahalliy hamda, global qarama-qarshiligi, milliy-etnik toqatsizlik va millatlararo nizolar, konfessiyalararo qarama-qarshilikning manbalari ham shunda.

Odamlarning, ayniqsa, yosh avlodning ongini egallab olishni, ularni milliy qadriyatlardan, jahon tsivilizatsiyasi yutuqlaridan mahrum qilishni mo'ljallangan tajovuzkor mafkuraning turli shakllari eng xavfli tahdidlar sirasiga kiradi.

O'zbekiston xalqaro terrorizm, fundamentalizm va diniy ekstremizmning fojeaviy hurujlarini bir necha bor o'z boshidan o'tkazdi. Amalga oshirilgan har bir terrorchilik harakatining aniq maqsadga yo'naltirilganligi, oldindan puxta tayyorgarlik ko'rilmanni ham kundek ravshan. Bunday harakatlarning qatnashchilari yaxshi o'qitilgan, qurollantirilgan va o'z razil niyatlariga etish uchun har qanday qurbanlardan, shu jumladan, tinch aholini qirg'in qilishdan qaytmaydilar. Bunday qabih maqsadlarning zamirida esa buyuk davlatchilik gegemonizmi, diniy mansublilik, etnik birlik (etnotsentrizm), ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy monopolizm singari tarixiy asoslarga ko'ra dunyoni bo'lib olishga urinish yotganligi ham tobora oshkor bo'lib bormoqda.

Jahoning etakchi davlatlari, ularning rahbarlari O'zbekiston rahbariyatining tutgan yo'lini tushundilar, qabul qildilar va qo'llab-quvvatladilar.

Ekstremistik qarashlarning vujudga kelishi, ijtimoiy keskinlik, siyosiy, milliy, diniy murosasizlikning chuqur sabablarini izlash, asr tahdidlarining oldini olish

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari - oliv qadriyat. T.14, – T.: O'zbekiston. 2006. –B.233.

maqsadida, jumladan, uzliksiz ta’lim va ma’naviyatni rivojlantirish sohasida samarali mexanizmlarni ishlab chiqish, maxsus fanlar va fanlararo ilmiy tadqiqotlar doirasida chuqur izlanishlar olib borish bugun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Qolaversa, terrorchilik harakatlarining jamiyatdagi umumiyligi vaziyatga, qadriyatlarga, ideallarga, rivojlanish yo’nalishlariga salbiy ta’sir qilish mumkin bo’lgan nafaqat to’g’ridan to’g’ri, balki bilvosita oqibatlarini ham aniqlash juda muhimdir.

Bu esa jamiyatning maqsadlari va qadriyatlarida, shu jumladan, ta’lim va tarbiyada, uning tashkil etilishi va mazmunida, o’sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda so’zsiz aks etishi mumkin.

Terroristik faoliyatning o’ziga xos illatli oqibati aynan mana shundadir. Terrorizmning xatari faqat odamlarni nobud etishga qaratilgan va vayronagarchiliklarga olib keluvchi to’g’ridan-to’g’ri haraktlardagina emas, balki shakllangan turmush tarziga, barqaror gumanistik ideallar va printsiplarga zid bo’lgan, davlat va jamiyatning strategik ustuvorliklariga, shu jumladan, ta’lim-tarbiyaning ustuvorligiga ishonchsizlik vaziyatini vujudga keltirishda ham namoyon bo’ladi.

O’zbekiston, o’zining birinchi yetakchisi I.A.Karimov tomonidan mustaqillikning ilk tongidayoq asos solingan printsipial ichki va tashqi siyosatni izchil o’tkazib kelmoqda. O’zbekiston xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fanatizm bilan kurashda jahon hamjamiatining jipslashishiga ulush bo’lib qo’shiladigan sa’y-harakatlarni allaqachon boshlagandi. O’zbekiston mazkur global muammoga nisbatan o’zining printsipial nuqtai nazarini, tinchlik va demokratiya ideallariga, umuminsoniy qadriyatlarga tarafdarligini muntazam amalda namoyon qilib keldi va kelmoqda.

“Uchinchi ming yillik vabosi”ga qarshi harakat qilish – bu, milliy g’oya asosida yosh avlodni tarbiyalashning yaxlit tizimi doirasida maxsus chora-tadbirlar va texnologiyalarni amalga oshirish ham demakdir.

Ushbu yo'nalish respublikamizdagi davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlarida tegishli ish olib borilmoqda. Jumladan, o'qitish va tarbiyalashning yaxlitligi muhitida shaxsni voyaga yetkazish, komil insonni tarbiyalash amalga oshirilmoqda, ham o'quv, ham o'qishdan tashqari ishlarda maqsadga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir ko'rsatish omillaridan foydalanilyapti.

Bizning fikrimizcha, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, jamiyatni ma'naviy yangilashning zamonaviy va istiqboldagi talablar, ayniqsa, o'qib kelayotgan avlodning ongiga noinsoniy, ekstremistik mafkuralarni singdirishga urinishlar kuchaygan hozirgi paytda yaxlit tarbiyaviy tizimni tashkil etish va rivojlantirish muhim vazifaga aylanmoqda.

Gap tarbiyaviy ishlar mazmunini zamonga moslashtirish, unga tizimli, maqsadga yo'naltirilgan, tadrijiy, uzlusiz xususiyat baxsh etish ustida bormoqda. Tarbiya jarayoniga mas'ul barcha subektlarining o'zaro samarali va maqsadli hamkorlik qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bunday hamkorlikning mexanizmlarini shakllantirish zarur. Buning uchun erkin shaxsni voyaga yetkazishga qaratilgan muqobil shakllar, tarbiya vositalari va usullari joriy etilishi lozim. Birinchi navbatda esa ayni maqsadga xizmat qiladigan tegishli tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish darkor.

Shu munosabat bilan, bolalar va yoshlarni tarbiyalashning yangi modeli va yaxlit tizimini ishlab chiqish hamda, amaliyotga joriy etish nihoyatda muhimdir. Tarbiya tizimi maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun bolalar va yoshlarni tarbiyalashning maqsadli dasturini ishlab chiqish hamda, amalga oshirishga kirishish, shuningdek, tarbiya tizimi subektlari faoliyatining muvofiqlashtirilishi va yo'naltirilishini ta'minlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Tarbiya tizimiga barcha davlat va nodavlat tuzilmalarini, jamoat tashkilotlarini jalb etish, tarbiya jarayonida ularning roli va funktsiyalariga alohida izoh berish va yo'naltirish zarur. Bu muvofiqlashtirilgan, o'zaro bog'liq va maqsadga yo'naltirilgan jarayon tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish imkonini beradi.

Tarbiyaviy tizim subektlarini, bolalar va o'quvchi yoshlarni tarbiyalashning yaxlit tizimida ushbu subektlarning umumlashtirilgan vazifalari va funktsiyalarini qisqacha ko'rib chiqaylik.

**Uzluksiz ta'lim** – davlat ta'lim standartlari, umumta'lim, umumkasbiy va maxsus dasturlarni amalga oshirish, ta'limning maqsadli ko'rsatmalarini bajarish doirasida boy madaniy-tarixiy va ma'naviy-axloqiy an'analarga, fan, texnika va texnologiyalarning ilg'or yutuqlariga asoslangan ham o'quv, ham o'qishdan tashqari ishlarda pedagogik ta'sir ko'rsatishning butun kompleksidan foydalanilgan holda komil insonni, shaxsni tarbiyalash yuzasidan aniq maqsadga yo'niltirilgan faoliyat olib bordi.

**Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar** – kutubxonlar, teatrlar, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, qayta tiklangan obidalar, muzeylar va boshqa muassasalarning salohiyatidan, teatr va kino, tasviriy san'at vositalaridan unumli foydalanish asosida aholining keng qatlamlariga milliy g'oya mohiyatini singdiriladi, yoshlarni aniq maqsadni ko'zlab tarbiyalash tadbirlari ishlab chiqiladi va hayotga tadbiq etiladi.

Shu asnoda, ulardan ta'limning mazmunini boyitish, amaliyotini kuchaytirish, madaniyatimiz va san'atimizni xorijda targ'ib qilish va yoyishda, milliy va xalqaro tanlovlар, festivallar o'tkazishda, yoshlarning badiiy ijodkorligini yanada rivojlantirishda, yoshlar uchun turli intellektual o'yinlar, ko'rsatuвлar, qiziqarli va mazmunli tomoshalar tashkil etishda foydalaniladi.

**Adabiyot va san'at** – o'z vositalari orqali odamlarning ongiga ta'sir o'tkazadi, xalqning boy madaniy-tarixiy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlaridan, jahon tsivilizatsiyasi xazinasidan bahramand etadi. Har tomonlama kamol topgan, ma'naviy boy shaxsni tarbiyalash adabiyot va san'atning asosiy yo'nalishiga aylanishi zarur.

Yoshlar uchun vatanparvarlik, fidoyilik, mardlik, o'z yurti va millatidan g'ururlanish hissiyotlarini shakllantirishga qaratilgan turli badiiy asarlar yaratiladi.

Asosiysi – tariximizning yorqin sahifalarini, bugungi hayotimizni, xayrli ishlarni, milliy g’oyani hayotga joriy etishga doir faoliyatni aks ettiruvchi hamda, yot g’oyalarning mohiyatini teran ohib beruvchi adabiyot, kino, teatr, musiqa, tasviriy san’at va xalq hunarmandchiligi asarlarini yaratishdir.

**Jismoniy tarbiya va sport** – yoshlarning rivojlanayotgan ommaviy jismoniy tarbiya va sport harakati orqali o’sib kelayotgan avlodning jismoniy va axloqiy kamol topishiga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

**Yoshlarning ommaviy sport harakati shakllantirilmoqda.** Zero, jismoniy tarbiya va sport o’zining ommaviyligi, aniq maqsadga yo’naltirilgani tufayli yoshlarni tarbiyalashning qudratli omili va vositasi hisoblanadi. U farzandlarimizda mardlik, fidoyilik, iroda mustahkamlanishini, maqsadga erishishga intilishni, o’z jamoasi va jonajon diyorining muvaffaqiyatlari, sport yutuqlaridan g’ururlanishni ta’minlaydi.

**Fan va ilmiy muassasalar** – milliy mustaqillik mafkurasini takomillashtirilishining samarali yo’llari ilmiy asoslanishini ta’minlaydi; milliy g’oyaning barcha jihatlari, xalq urf-odatlari, an’analari va qadriyatlarini boyitishda uning o’rni va ahamiyati bo’yicha muntazam ravishda targ’ibot ishlari olib boradi; jahonda mafkuralarning uyg’unligi va kurashi jarayonlarni o’rganadi; mafkura sohasida, milliy omilni hisobga olgan holda, umuminsoniy va mintaqaviy muammolar monitoringini o’tkazadi, ularni hal etish yo’llarini belgilaydi; mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning samarali yo’llari yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqadi.

**Din va diniy tashkilotlar** – ma’naviyatni, axloq va madaniyatni yuksaltirish, axloqiy, gumanistik qarashlar orqali milliy g’oyani rivojlantirish, tarbiya tizimida muqaddas dinimizning o’ziga xos jihatlaridan oqilona foydalanish, dinning insonparvarlik mohiyati va tarbiyaviy yo’nalishini o’rganishning hamda, chuqr anglash va anglatishga ko’maklashadi.

**Mehnat jamoalari** – insonning hayotga teran qarashini shakllantirish, uni ijtimoiy mansublik, mehnatsevarlik,adolat, do’stlik va o’zaro tushunish, foydali

asosdagi hamkorlik ruhida tarbiyalash, ilg'or ijtimoiy munosabatlarni qadrlash qobiliyatini o'stirish, jamoalarda sog'lom ma'naviy vaziyatni barpo etishga garov bo'ladi.

**Siyosiy partiylar, jamoat tashkilotlari va jamg'armalar** – fuqarolarning har qanday jamoat birlashmasi o'z dasturiy maqsadlari va vazifalarini amalga oshirar ekan, bolalar va yoshlarni tarbiyalashda faol ishtirok etadi. “Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati”, “Ma’naviyat va ma’rifat” Respublika kengashi, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, “Oila” markazi, “Jamoatchilik fikrini o’rganish markazi”, “Ma’rifatparvarlar”, “Tarixchilar”, “Faylasuflar” jamiyatlari, “Sog'lom avlod uchun”, “Ulug’bek”, “Oltin meros”, “Amir Temur”, “Iste’dod”, “Mahalla”, “Nuroniy” jamg’armalari va boshqalar o’sib kelayotgan yosh avlod ongida milliy mustaqillik printsiplari va qoidalarini shakllantirish bo'yicha maxsus maqsadli dasturlarni (o'z tuzilmasida yoshlar bo'linmalarini tashkil etishgacha) amalga oshiradilar.

**Ommaviy axborot vositalari** – ijtimoiy fikrni shakllantirishda, yosh avlod ongiga milliy g’oyani singdirishda faol ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalari ma’naviy-ma’rifiy islohotlar yo’nalishida paydo bo’ladigan muammolar tezkorlik bilan yoritib, islohotlar samaradorligini oshirishda muhim rol o’ynaydi, ongga ijobjiy yangiliklarni idrok etish zarurligini singdiradi, har xil fikrlar va qarashlarga keng yo’l berib, fuqarolarning erkin fikrlashini rag’batlantiradi. Bunda xolislik va haqiqatgo’ylik tamoyillariga tayanadi.

**Mahalla** – asriy an'analar, urf-odatlar va rasm-rusumlarga tayangan holda mahalla hamjamiyatida ijtimoiy ongni shakllantiradi, kattta avlodning shaxsiy namunasi, jamoaviy xulq-atvor normalari, adolatli munosabatlar, o'zaro hurmat qilish, rahm-shafqat, mehr-oqibat, bag’ri kenglik, bir-biroviga ko’maklashish, madaniy-tarixiy va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish orqali ijtimoiy ongni boyitadi.

**Oila** – azaliy tushunchalaridan kelib chiqib, ota-onalar va bolalarning o'zaro hamkorligi, qarindoshlarning bir-biriga yordam berishi, bolalar to'g'risida

g’amxo’rlik qilishda yoshlar uchun ishonchli tayanch, ularning ma’naviyati va axloqi uchun negizga aylanadi, maishiy turmushning asosiy tushunchalari va qoidalari, xalqning an’analari va rasm-rusumlarini saqlanib qolishi va avlodan avlodga o’tishini ta’minlaydi.

**Davlat hokimiysi va boshqaruv organlari** – tarbiya tizimi mavjud bo’lishining, uning maqsadli ko’rsatmalariga erishishning tashabbuskori, kafili va muvofiqlashtiruvchisi hisoblanadi. Bunda davlatning ta’lim, tarbiya va yoshlar siyosatini bevosita amalga oshiruvchi davlat hokimiysi va boshqaruvning hududiy organlariga alohida rol ajratiladi.

**Shaxs** - yaxlit tarbiyaviy tizimining yadrosi, tarbiya jarayoni ob’ekti va faol sub’ekti hisoblanadi.

Shu bilan birga, bolalar va yoshlarni tarbiyalash maqsadli dasturning umumiyy va xususiy maqsadlari, vazifalari, funktsiyalari aniqlanadi.

Mazkur dastur doirasida tarbiyaviy tizim har bir sub’ektining vazifalari va funktsiyalari belgilanadi, chora-tadbirlar va mexanizmlar, asosiy bosqichlar va faoliyat yo’nalishlari ishlab chiqiladi. Modelning maqsadli ko’rsatmalariga erishishda o’zaro hamkorlik, albatta, nazarda tutiladi.

Jismoniy sog’lom va ma’naviy boy avlodni kamol toptirish, vatanparvarlikni, Vatan bilan g’ururlanish va unga muhabbatni, o’z malakatining buyuk kelajagiga ishonchni, uning bax-saodati, ravnaqi uchun ma’suliyatni tarbiyalash tizimning belgilovchi vazifasiga aylanadi.

Aynan ta’lim asosida va u orqali, ta’lim-tarbiyani tashkil etish va uning mazmuni orqali oldinga qo’yilgan masalalarga javoblarni izlash va topish mumkin va zarurdir.

Biroq ta’lim qanday, qay tarzda mamlakat xavfsizligini ta’minlashi, masalan, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish mumkin, degan savol tug’ilishi tabiiydir.

Biz kimni qanday tarbiyalaymiz va o’qitamiz? Qanday ma’naviy-axloqiy ideallar va qadriyatlarni, qanday dunyoqarashni shakllantiramiz? Jamiatning

kelajagi uchun har bir kishiga qanday mas’uliyat ko’lamini yuklaymiz? Bu va boshqa savollarga javoblar birinchi navbatda ta’lim-tarbiya sohasiga, ta’lim-tarbiyaning samaradoligiga, o’sib kelayotgan avlodning kamol topishiga, uning intellektual, ma’naviy, axloqiy fazilatlariga chambarchas bog’liqdir.

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyati rivojlanishiga mos yangi ijtimoiy ongni shakllantirish, ma’lumki, ikki asosiy omil: bevosita ijtimoiy amaliyat hamda, ta’lim va tarbiyaning aniq maqsadga yo’naltirilishi ta’siri ostida yuz beradi. Har bir inson faqat ta’lim tizimidan ijtimoiy tarbiya va kamolotdan, kasb egallash jarayonidan o’tib shaxsga aylanadi. Natijada shaxsning ijtimoiylashuvi yuz beradi, u ijtimoiy ahamiyatli funktsiyalarni bajarish, ijtimoiy rollarni o’zlashtirish, o’zining o’rni va mas’uliyatini ijobiy anglash, jamiyatning boshqa a’zolari bilan mustaqil munosabatlarga kirishish qobiliyatiga ega bo’ladi.

Kelajagimiz uchun aynan ta’lim-tarbiya mas’uldir, aynan ta’lim-tarbiya hozirgi davrda “kelajakning darakchisi” hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jamiyatda bugun nima yuz berayotganligi va kelajakda nimalar yuz berishi uchun faqat rol o’ynabgina qolmay, balki buning uchun javobgar hamdir.

Tarbiyaviy faoliyat – har bir oila, butun jamiyatning uzluksiz va mohiyatiga ko’ra eng asosiy vazifasidir. Bundan quyidagicha xulosaga kelish mumkin: jamiyatning global pedagoglashuvi, pedagogik g’oyalarning jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borishi uchun maxsus chora-tadbirlar ko’rish va shart-sharoitlar yaratish zarur. Bu degani – jamiyat ta’lim sohasining holati uchungina emas, balki o’zining ta’lim-tarbiya yo’nalishidagi funktsiyalari bajarilishi uchun ham mas’ul ekanligi demakdir. Biroq bu alohiyada muhokama etiladigan soha.

“Ta’lim va jamiyat”, “ta’lim va davlat”, “ta’lim va shaxs”, “jamiyat va shaxs”, “davlat va shaxs” sanab o’tilgan kategoriyalarning o’zaro hamkorligi va o’zaro bir-biriga kirib borishi, ularning mavjud bo’lishi va rivojlanish strategiyasi, yangi avlodni shakllantirishda ularning mas’uliyati va roli Respublika rahbariyati tomonidan ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash milliy modelida aniq belgilangan.

Shubhasiz, ta'lim tizimi jamiyatning o'ziga xos ko'zgusi, uning ajralmas qismi va ayni vaqtda taraqqiyot va ravnaqning asosidir.

Demak, ta'lim-tarbiya va jamiyat bir-biridan ajralmasdir.

Bu mohiyatiga ko'ra, bitta tizim. Shu sababli jamiyat duch keladigan biror bir ahamiyatli muammo ta'lim sohasining holatiga ham so'zsiz daxl qiladi. Qolaversa, davlat va jamiyat ta'limning ilg'or rivojlanishi kafili hisoblanadi. Ta'lim sohasida tegishli strategiya amalga oshirilishini ta'minlaydi, uning maqsad va vazifalarini belgilab beradi, uning qadriyatli yo'nalişlarini aniqlaydi. Bu "ta'lim – jamiyat" tizimida o'zaro hamkorlik oqimining birinchi yo'nalişidir.

Ikkinchi yo'naliş uzlucksiz ta'lim tizimida vatanparvar, fidoyi, o'z davlati, xalqi oldida mas'uliyatini tushunadigan, chuqur bilimga ega bo'lgan komil insonni, barkamol avlodni tarbiyalash orqali rivojlangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish va pirovard natijada jahon hamjamiatida munosib o'rnimizni egallash bilan bog'liqdir.

Hozirgi davrning ochiq va yashirish tahdidlari sharoiti sharoitida ta'limning "elkasiga tushadigan" jamiyat xavfsizligini ta'minlashdagi javobgarlik "yuki" aslida mana shundan iborat.

Ta'lim-tarbiya tizimida komil insonni, shaxsni voyaga yetkazish orqali taraqqiyotga va jamiyatning ravnaqiga erishish, bu – davlat, jamiyat, shaxsning bugungi yo'li, mexanizmidir.

Professional, keng ma'lumotli, ma'naviy va axloqiy boy shaxslarsiz iqtisodiyotda, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda, umuman, davlat va jamiyatda taraqqiyot bo'lishi mumkin emasligi ayon. Buni teran anglagan mamlakat rahbariyati ta'lim tizimidagi islohotlar tashabbuskori va kafili sifatida uning oldiga aniq va qat'iy vazifalarni qo'ydi. Davlat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarga muvofiq mamlakat rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'lim sohasidagi o'z majburiyatlarini amalda bajarmoqda.

Xo'sh, ta'lim tizimi-chi, u bilan qay tarzda "javob beryapti"? Ta'lim davlat va jamiyat oldidagi o'z majburiyatlarining bajarilishi uchun barcha ishlarni qilyaptimi? Bu soha xodimlari jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini to'liq darajada anglab yetdimi? Ta'lim sohasi xodimlari va umuman ta'lim tizimi ertangi kun vazifalarini had etish uchun tayyormi? Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotiga faol ta'sir ko'rsatishi, XXI asrdagi tahdidlarni yengib o'tish talablariga to'liq javob berish uchun ta'lim jarayonini qanday tashkil etish, uni qanday mazmun bilan boyitish zarur? Yaqin istiqbolda ta'limni rivojlantirishning yaxlit tarbiya tizimini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning sur'atlari va yo'nalishi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy, madaniy yangilanishi ko'p jihatdan mazkur savollarga qanday javob berilishiga bog'liq.

Hozircha esa bir narsani aniq aytish mumkin: ta'lim-tarbiyaga hamma tomonidan mamlakatdagi demokratik o'zgarishlari va bozor munosabatlari tizimining asosiy omili sifatida qaralishi, shundan kelib chiqib undan foydalanimli kerak.

Shu tufayli ham, uzluksiz ta'lim tizimining tarixiy missiyasi va davlat, jamiyat, shaxs oldidagi mas'uliyatni his etishi ustuvor masala ekanini alohida ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Ushbu yo'nalishda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda talay ishlar amalga oshirildi. Biroq, yangi dunyoqarash, ijtimoiy ong shakllantirilish murakkab va uzoq davom etadigan jarayon. Buning ustiga, jamiyat hayotiga, xalqning oliy maqsadlariga yot bo'lgan g'oyalarning ta'siri kuchayishi xavfi mavjud. Jahonning ayrim mamlakatlarida joylashgan kapital va kuchli ta'sirga ega bo'lgan turli markazlar vaziyatdan foydalanim, o'zlarining g'arazli maqsadiga erishishga intilmoqda.

Jahonning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy taqsimlashga qaratilgan intilishlar bo'lib turgan hozirgi sharoitda faqat milliy va ilg'or mafkura jamiyatni nojoiz da'volardan himoya qilishi mumkin.

**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**, uzlusiz ta’lim tizimi ko’rsatib o’tilgan vazifani amalga oshirishning ta’sirchan omili va kuchli mexanizmlaridan biridir. Endigi vazifa – oldinga qo’yilgan maqsadlarga erishish shartlari, chora-tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chiqishdan yangi ijtimoiy ongni shakllantirishdan, milliy g’oyani jamiyat ongi va qalbiga singdirishdan iboratdir.

Bugungi kunda milliy g’oyani amaliyotga tatbiq qilishga doir chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish, yosh avlod “Men jamiyatim, Vatanim uchun nima qildim?” degan savolga javob beradigan, mamlakatning umumiy rivojlanishida o’z o’rnini topadigan, Vatan taraqqiyoti va ravnaqiga imkon qadar xissa qo’shadigan shart-sharoitlar ta’minlanishi taqazo etiliadi.

**Tarbiya tizimi** mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslar joriy etilishi, chinakam fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurilishi, tafakkur rivojlanishi, shaxsning ichki olam boyishi, qolaversa, yangi ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlar shakllanishi jarayonlarining tezlashishi uchun mas’uldir.

Demak, tarbiya tizimi mamlakat rivojlanishining strategik maqsadlari – ravnaq topgan kuchli demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga erishishning qat’iy sharti va qudrati omili sifatida milliy g’oyaga asoslangan yangi ijtimoiy ong shakllanishi uchun mas’uldir.

## **II BOB. XALQ TA'LIMI TIZIMIDA MILLIY G'OYANING NAZARIY VA AMALIY TOMONLARINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **2.1. Milliy g'oya va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida mактабning o'rni.**

Jamiyatdagi ayrim muassasalar o'z xususiyati va funktsiyasiga ko'ra mafkuraga bevosita daxldor muassasalar hisoblanadi. Mafkura o'z mohiyatiga ko'ra bo'linmas va yaxlit mexanizm bo'lganligi uchun ham uning amaliyotini mafkuraviy muassasalar va unda faoliyat yurituvchi mafkurachi shaxslarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mafkuraviy muassasalar deganda moddiy tovar va mahulotlar ishlab chiqarmaydigan asosan, inson ongini rivojlantirish yoki yanada takomillashtirish bilan shug'ullanadigan, faoliyati bevosita inson ongiga yo'naltirilgan ijtimoiy institutlar tushuniladi. Ular doirasiga oila, mahalla, barcha ta'lim muassasalari (ya'ni, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlari), ijodkorlik uyushmalari, radio va televidenie hamda siyosiy partiyalar va boshqa axborot yaratuvchi hamda uni uzatuvchi muassasalar kiradi. Diniy mazmundagi mafkuralar dunyoviy mazmundagi mafkuralardan farqli o'laroq yuqorida sanab o'tilgan mafkuraviy muassasalar qatorida maxsus tashkil etilgan ibodatxonalardan ham mafkuraviy muassasa sifatida foydalanadilar. Jamiyatdagi barcha institut va muassasalar ham mafkuraviy muassasa hisoblanavermaydi. Biror muassasaga mafkuraviy muassasa sifatida yondashishning asosiy mezoni sifatida uning muayyan bir mafkura ta'sirida ekanligi va unda g'oyalarni singdirish amalga oshirilayotganligi e'tiborga olinadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda mактаб eng asosiy mafkuraviy muassasalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham yosh avlodning ongi va tafakkurini shakllanishida mактаб ta'limi va undagi pedagog hodimlarningning roli beqiyos ekanligini hisobga olgan holda Islom Karimov "Agarki dunyo imoratlari

ichida eng ulug’i maktab bo’lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o’qituvchilik va murabbiylikdir”<sup>1</sup>, deydi.

Darhaqiqat, jamiyatda milliy g’oyani singdirish amaliyotida maktab ta’limining o’rni va roli juda yuqori bo’lib uni to’g’ri yo’lga qo’yish orqali bu muhitda tarbiyalanayotgan har bir insonni shaxs sifatida shakllanishi uchun qulay imkoniyat vujudga keltirish mumkin.

Maktab ta’limi orqali yo’lga qo’yilgan o’qituvchi va o’quvchi, o’quvchi va o’quvchi munosabatlarida “O’zaro fikr almashuvlar, hozirgi davr, davlat va mamlakatlar, insoniyat taqdiri va istiqboli haqidagi mulohazalar o’quvchida aniq-ravshan tasavvurlar hosil etadi va ularga individual munosabatlar, shundan kelib chiqadigan baholarni vujudga keltiradi.”<sup>2</sup>

Maktabda olib borilayotgan milliy g’oyani singdirish amaliyotida ilmiy, umuminsoniy va milliy g’oya asosda shakllangan g’oyalar o’quvchilarga shaxsiy va ijtimoiy maqsadini anglatishda va ularga bu maqsadlarga to’siq bo’luvchi vayronkor kuchlarni mohiyatini tushunib etishlarida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zero, mana shunday muhitda o’quvchi o’z o’zligini va fuqarolik pozitsiyasini anglab yetadi. O’z vaqtida anglab yetilgan “men” va fuqarolik pozitsiyasi o’quvchilarda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda oqilona harakat qilish ko’nikmasini shakllantiradi. Bevosita ta’lim tizimi orqali o’quvchilarda shakllantirilgan mazkur ko’nikma va malakalar ularning ijtimoiy-siyosiy jihatdan madaniyatlilik darajasini belgilab beradi. Ta’kidlash lozimki, har bir shaxsning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi madaniyatlilik darjasini jamiyatda asosan, ikki ta’sir, ya’ni tashqi va ichki ta’sir natijasida vujudga keladi va rivojlanadi. Tashqi ta’sir bu - jamiyatda mafkuralar, mafkuraviy institutlar (ya’ni, maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar, litsey va kollejlar, oliy o’quv yurtlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlari), ijodkorlik uyushmalari, radio va televideonie hamda siyosiy partiyalar va boshqa axborot yaratuvchi hamda uni hamda davlat organlari faoliyati

<sup>1</sup>Каримов И.А. Юқсак маънавият - енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 131.

<sup>2</sup>Каримов И.А. Ноосфера: геосиёсат ва мафкура. – Т.: Фан, 2007. – Б. 172.

orqali vujudga keladigan, insonga butun umri davomida davlat va jamiyat qonun-qoidalarni tushuntirib, eslatib turadigan ta'sir turi hisoblanadi.

Ichki ta'sir esa tashqi ta'sir natijasida shakllanadigan insondagi ichki iroda hamda o'zligini uyg'onish jarayoni hisoblanadi. U orqali inson hech qanday tashqi ta'sirlarsiz ham o'z-o'zini boshqara olish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Mafkuraviy amaliyotda barcha muassasalar ham kishilarga bir vaqt ni o'zida har ikki ta'sirni ko'rsata olmaydi. Masalan, davlat organlarining aksariyati kishilar ustidan tashqi ta'sirni amalga oshiradi. Bu tashkilotlar faoliyatida kishilarga ichki-ruhiy tomondan ta'sir etish imkoniyati mavjud emas. Lekin, jamiyatda shunday mafkuraviy muassasa borki, u bir vaqt ni o'zida insonlarga tashqi ta'sir ko'rsatgan holda ayni vaqtda ularda ichki iroda hamda milliy o'zligini uyg'otish jarayonini ham amalga oshiradi. Bu muassasaning nomi yuqorida tilga oлganimizdek dunyo imoratlari ichida eng ulug'i bo'lgan maktabdir.

Jamiyatdagi barcha kishilar tomonidan ayniqsa, ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va murabbiylar tomonidan mакtabga mafkuraviy muassasa sifatida yondashilishi va bu erda milliy g'oynani singdirish amaliyotini to'g'ri yo'lga qo'ya olishi nihoyatda muhim masala hisoblanadi. Bu masalaga to'g'ri yondashgan jamiyat a'zolari (ayniqsa o'qituvchi va murabbiylar) mafkura sohasidagi bilimlari orqali o'zlari va yosh avlodlarining baxtli kelajaklarining maktabdeklar mustahkam tayanch nuqtasi va kafolatiga ega bo'lishadi.

Milliy g'oya va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida maktabning roli. Ma'lumki, jahondagi davlatlar, xalqlar va ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'rta sidagi munosabatlar, ayniqsa ijtimoiy jarayonlardagi mafkuraviy ta'sirlar odamlar ongi va qalbiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi murakkab va tahlikali davrda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagagi 451-sonli Qarorida ta'kidlanganidek, "yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin

bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi ushbu sohadagi ishlarni ko'rib chiqishni taqozo etmoqda."

Bu boradagi eng dolzarb vazifa – o'quvchi yoshlar qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat hamda, sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish, milliy g'ururni tarbiyalash masalasidir. Ushbu vazifa bilan uzviy bog'liq bo'lgan muammo – yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, hayotga ongli munosabat, doimo ogoh va hushyor bo'lib yashash tuyg'usini oshirishdir. Shu ma'noda olib qaralganda har qanday jamiyat o'z istiqbolini kishilarni e'tiqod darajasiga aylangan muayyan g'oyada ko'ra oladi. Chunki, "jamiyatning, jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasi bo'lmasa, o'z oldiga qo'ygan aniq bir maqsad-muddaosi bo'lmasa, u muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi."<sup>1</sup>

Mana shunday tabiiy haqiqatning isboti o'laroq mamlakatimizda 2001 yil 18 yanvarda O'zbekiston Prezidentining "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va Respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi Farmoyishi qabul qilindi. Unga ko'ra ta'lim tizimining barcha bosqichlarida "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanlari joriy etildi va mazkur yildan pedagogika institutlarida aynan shu yo'naliш bo'yicha mutaxassislar ham tayyorlana boshlandi.

Jamiyatda milliy g'oyani targ'ib etish, xalqimiz ayniqsa yosh avlodni turli ma'naviy tahdidlardan asrab qolish uchun ilmiy asoslangan va zamon talablariga mos ravishda ta'lim tizimini tanlanganligi juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu ayniqsa O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni qurilishini g'oyaviy va nazariy jihatdan yanada jadallashtirishga imkon yaratdi.

Mamlakatimizda milliy g'oya va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida maktab ta'limiga alohida urg'u berilayotganligidan ko'zlangan asosiy maqsad:

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси ҳалқни-халқ миллатни –миллат қилишга хизмат этсин. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б.5.

- mustaqil O’zbekistonning hayotiy yutuqlarini dalil-isbotsiz ataylab qoralash, mustaqillikka erishgan mamlakatlarning barchasida mavjud bo’lgan umumiyligi muammolarni “faqat O’zbekistonda bor” deb talqin qilish, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yutuqlari mohiyatini, davlatimizning tashqi va ichki siyosatini soxtalashtirish, buzib ko’rsatishga;
- ayrim mamlakatlar turmush tarzi, siyosiy tizimini bir yoqlama ko’kka ko’tarish; milliy g’oyalarimizni obro’sizlantirishga;
- ko’pmillatli O’zbekiston aholi o’rtasida ijtimoiy hamkorlikni buzishga qaratilgan kayfiyatlarni tarqatish va nizolar keltirib chiqarishga;
- odamlarning diniy tuyg’ularini junbushga keltirish, diniy ziddiyatlarni paydo qilish kabi g’arazli maqsadlarga bevosita ta’lim tizimidagi o’quv darslari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali qarshi turishdir.

Darhaqiqat, bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimini bosh maqsadi bevosita aniq va tabiiy fanlarni puxta biladigan, jahon maydonida o’z bilimi orqali raqobatlasha oladigan ayni damda esa, ruhiy jihatdan oilasi, vatani hamda millatiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg’ulari shakllangan yosh avlodni tarbiyalashdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardandir. Boshqacha aytganda, biz o’z xaq-huquqlarini taniydigan, o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo’layotgan voqeа-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg’un holda ko’radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak.”<sup>1</sup>

Ma’lumki tarbiya o’z mohiyatiga ko’ra, keng va tor ma’nolarda ifoda etiladi hamda ijtimoiy hayotda amal qiladi. Keng ma’noda oladigan bo’lsak, tarbiya – ijtimoiy-madaniy tajribalarni aniq maqsadni ko’zlagan holda avloddan-avlodga o’tkazadigan va shaxsning kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan alohida jarayondir. Tor ma’noda esa, tarbiya – yoshlarni ijtimoiy turmushning

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда – Т.: 1999. – Б. 17-18.

murakkab vaziyatlariga moslashtirish yo'lida kattalarning birgalikdagi aniq maqsadga yo'naltirgan faoliyatini, ya'ni yetuk shaxsni kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jarayonini anglatadi. Ushbu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Xuddi shuning uchun ham tarbiya orqali yoshlar ma'naviy jihatdan to'g'ri shakllantirishning samarali tashkiliy va pedagogik uslublari, vositalari ishlab chiqilishi hamda, amaliyotga joriy etilishi zarur. Buni amalga oshirish jarayoni bevosita milliy g'oyani ro'yobga chiqarish, barkamol avlodni shakllantirishdan iborat bosh maqsadga erishishni ta'minlovchi xalqimizning milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlariga va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan bo'lishi lozim.

Ta'kidlash kerakki, biz millat sifatida juda katta moddiy va ma'naviy merosga ega bo'lган xalqmiz. Hozirda buning isboti sifatida YUNESKO tomonidan yurtimizdagи 4000dan ziyod moddiy va ma'naviy meros ro'yxatga olinganligini aytishni o'zi kifoya. Ko'rinish turibdiki, tarixan shakllangan moddiy va ma'naviy merosimiz boqiy an'analarimiz ko'p. Bugungi kunda ham ulardan yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, I.A.Karimov ta'kidlab ko'rsatganidek "Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak."<sup>1</sup>

Bugungi kunda, bilimlar va axborotlar hajmining ko'payishi odamlar dunyoqarashining kengayishi va ma'naviyatining yuksalishiga turtki bo'lishi shubhasiz. Ayni paytda, yoshlarda tinimsiz va keng ko'lamda kelayotgan xabarlar ichidan haqqoniy, ob'ektiv va foydali ma'lumotlarni ajrata olish qobiliyatini shakllantirish ham juda muhim vazifa bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda O'zbekistonda ham o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual

---

<sup>1</sup>"Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak."// Мулоқот журнали, 1999. № 4. – Б.21.

ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo’naltirilgan, printsipial “axborot siyosati” shakllantirilib hayotga joriy etilmoqda.

Ta’kidlash kerakki mamlakatimizda zamonaviy informatsion vaziyat talablarini hisobga olgan holda aholini ayniqsa yoshlar qatlamini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta’minalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2006 yili maxsus qaror qabul qilindi. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad ta’lim muassasalari qoshida yangi axborot markazlarini barpo etish, mamlakatdagi kutubxonalar tarmog’ini tubdan takomillashtirish edi. Mazkur qarorda oliy va o’rta maxsus ta’lim muassasalari hamda, ko’p sonli umumta’lim maktablari huzurida axborot-resurs markazlari tuzish ko’zda tutilgan. Unga ko’ra, axborot-resurs markazlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- ta’lim muassasalari o’quvchilari hamda, aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta’lim olishi va mustaqil ravishda talim olishiga ko’maklashish;
- milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko’lamda targ’ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo’lishini ta’minalash, ma’naviy boy va uyg’un kamol topgan shaxsning ijodiy o’sishi uchun imkoniyat yaratib berish;
- yangi axborot texnologiyalari (ma’lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko’rsatish;
- madaniy, ta’lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta’lim muassasalari, mahalliy o’zini o’zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va hokazolar.

Bu boradagi ishlar orqali Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini moddiy texnik bazasini yanada takomillashtirish hamda ularda tashkil etilayotgan darslar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar sifatini yanada yaxshilashdan ko’zlangan asosiy maqsad o’quvchi yoshlar ongiga milliy g’oyani chuqurroq singdirishga qaratilgandir. Darqiqat, “ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini o’zgartirmasdan turib ongni o’zgartirib bo’lmaydi. Ongni, tafakkurni

o'zgartirmasdan turib esa, ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.”<sup>1</sup>

Maktab ta'limida milliy g'oyani o'rghanish: muammo va echimlar. Ma'lumki, tarixan ta'lim va tarbiya jarayoni hech qachon g'oya va mafkuradan holi bo'limgan. Jamiyatda ta'lim va tarbiyaning mafkurasizlashib qolishi, yoki unda mafkura amaliyotini noto'g'ri yo'lga qo'yilganligi doimo insonlarni maqsadsiz qolishga hamda ularni o'zligidan uzoqlashishga olib kelgan.

Shunga ko'ra jamiyatimizning maqsadga erishuvida maktabdag'i ta'lim-tarbiya jarayoni uchun milliy g'oya o'ta zarurdir. Ayni vaqtda milliy g'oya har bir fuqaro ayniqsa ta'lim olish yoshidagi o'quvchilar ongiga kirib borishida ta'lim tizimining ko'magiga muhtoj. Mamlakatimizdag'i ta'lim tizimi va milliy g'oya o'rtasida ana shunday tamoyillar asosidagi o'zaro dialektik bog'liqlik mavjuddir.

Mustaqillikdan keyin mamlakatimizning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda mazkur bog'liqlik o'z aksini topmoqda. Hozirda ushbu islohotlar natijasida mamlakatimiz ta'lim tizimida tub sifat o'zgarishlar vujudga keltirildi. Sobiq Sovet davridagi, asosan, “Markaz” manfaatlariga xizmat qiluvchi ta'lim tizimi inkor etilib, uning o'rnila milliy manfaatimizga xizmat qiluvchi ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Bugungi kunda ushbu tizim o'zbek xalqining boy ma'naviy va moddiy merosini yosh avlodga yetkazishda, ularda bu me'rosdan faxr va g'urur tuyg'ularini kamol toptirishda hamda, ularni jahon ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Albatta, bu jarayonda milliy g'oyani singdirish orqali amalga oshirilayotgan ishlarni inobatga olmaslik mumkin emas. Binobarin, milliy g'oya ta'lim tizimining maktabgacha ta'limdan boshlab, to oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarida “Odobnoma”, “Vatan tuyg'usi”, “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari”, “Shaxs va jamiyat” va boshqa shu kabi fanlar orqali yosh avlodni ongida vatanni va insonni qadrlash kabi tuyg'ularni rivojlantirishda va mustaqil O'zbekistonda amalga

---

<sup>1</sup>Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни халқ миллатни миллат қилишга хизмат этсин. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 17.

oshirilayotgan islohotlar hamda jahondagi g'oyaviy-siyosiy jarayonlar to'g'risidagi bilimlarni hosil qilishda asosiy rolni o'yamoqda.

Mamlakatimizda milliy g'oyani shakkantirish amaliyotini ta'lim tizimiga kiritilishi ijobiy hol. Uni to'g'ri tashkillashtirish esa yanada yaxshiroqdir. Ta'lim tizimidagi milliy g'oyani singdirish amaliyoti haqida bunday deyishimizning, albatta, asoslari mavjud. Chunki, hozirda bu sohada erishayotgan yutuqlar bilan birga, ba'zi muammolar ham mavjud. Bu muammolar avvalo:

- Ta'lim bosqichlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda milliy g'oyani singdirish amaliyoti to'g'ri tashkillashtirilmaganligi;
- Milliy g'oya turkumdag'i fanlarni o'qitishda va ayni vaqtida boshqa turdag'i fanlar orqali milliy g'oyani singdirishda ayrim kadrlarning salohiyatsizligi;

Milliy g'oyani singdirish amaliyotidagi o'quv adabiyotlari to'liq mafkuraviy ta'sir vositasi darajasida ishlanmaganligi tufayli vujudga kelgandir. Darhaqiqat, yuqorida tilga olingan muammolar bugangi ta'lim tizimida mavjuddir. Jumladan milliy g'oya turkumdag'i fanlarni o'qitisha va ayni vaqtida boshqa turdag'i fanlar orqali milliy g'oyani singdirishda ayrim kadrlarning salohiyatsizligi maktab ta'limida mavjud xoldir. Mazkur muammoning kelib chiqishi sabablarining ayrimlariga to'xtaladigan bo'lsak, hozirda milliy g'oya turkumidagi fanlarning ba'zi o'qituvchilari o'zini qayday yo'nalishda ish olib borayotganligini, mafkurachi ekanligini bilmaydi va his qila olmaydi. Shuning uchun ham ular tomonidan milliy g'oyani singdirish ishiga quruq dars o'tish deb qaralmoqda. Va o'z-o'zidan bu jarayonda zamon talab etayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar (ZPT) va axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) ishlatilmay kelinmoqda. Natijada bugungi XXI asr sharoitida uyida ham ko'chada va xatto maktabda ham internet bilan bog'lanib o'tirgan o'quvchilar uchun XX asrning 70-80-yillarini eslatadigan faqat qora doska va oq bo'r hamda quruq ma'ruza orqali darslar tashkil etilmoqda. Aynan milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni ayrim mutaxasislari tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchilik va xatolar shularni tashkil etsa, boshqa turdag'i (masalan ona tili, adabiyot, geografiya, ingliz tili va hokazo)

fan o'qituvchilari tomonidan o'z fani orqali milliy g'oyani singdirish ishiga napisandlik bilan ikkinchi yoki uchinchi darajali masala sifatida qarash xollari uchrab qolmoqda. Mana shunday kamchiliklarga yo'l qo'yayotgan o'qituvchilar o'zlarining ish dasturlarida belgilab qo'yilgan darsning uch maqsadidan biri bo'lган tarbiyaviy maqsadda o'quvchilarga barcha fanlar orqali milliy g'oya singdirilishi lozimligini unutib qo'ymasliklari lozim.

Aynan shu masalada Islom Karimov ham shunday degan edi: "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham shu erda, o'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ham shunday bilimga ega bo'lishi kerak."<sup>1</sup> Zero, biz yangi asrda va yangi bir tsivilizatsiya davrida yashayapmiz. Bu tsivilizatsiyada mehnat qilib, o'zining ustida tinmay ishlaydigan, doimiy ravishda o'z bilim ehtiyojlarini qondirib, o'z kuch-quvvati va olgan bilimlarini o'quvchilarining barkamol bo'lib shakllanishiga sarf etadigan xizmat qila oladigan o'qituvchi va murabiylargina munosib o'rinni egallashi mumkin.

Milliy g'oyani singdirish amaliyotidagi muammolar qatoriga yana milliy g'oya turkumidagi o'quv adabiyotlari to'liq mafkuraviy ta'sir vositasi darajasida ishlanmaganligini keltirish mumkin. Bu holatga birgina misol sifatida bugungi o'rta ta'lim bosqichidagi 9-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fani bilan o'rta maxsus ta'lim bosqichidagi III kurs o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Milliy g'oya" va "Ma'naviyat asoslari" fanlari o'rtasidagi mavzularning o'xshashligi va ma'lumotlarni takrorlanishi kabi muammolarni yana mazkur fanlarning o'quv adabiyotlari mafkuraviy ta'sir vositasi emas, balki quruq ma'lumotlar to'plamiga aylanib qolganligini e'tirof etish kerak.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А.Баркамол авлод орзуси. – Т.: Шарқ. 1999. – Б.12.

Ta’lim tizimida olib borilayotgan mafkuraviy amaliyotning shu kabi muammolarini o’z vaqtida bartaraf etish lozim. Chunki ularning xal etilmasligi, milliy g’oyani singdirish ishi odamlar nigoxida mavhumlashib ketishiga va unga “quruq safsata” maqomi berilishiga olib kelishi mumkin. Milliy g’oyani singdirish amaliyotida bunday vaziyatni vujudga kelmasligi uchun mavjud muammolarni quyidagi yo’llar bilan xal etish lozim:

1) Ta’lim tizimidagi milliy g’oyani singdirish amaliyotida avvalo shu ishga munosib o’qituvchi va murabbiylarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish orqali barcha fanlar kesimida (o’quvchiga beriladigan ma’lumotlar, imtiyoz yoki tanbehlar orqali) milliy g’oyani zimdan, bilvosita amalyotga kiritish lozim. Masalan: matematika fanida “Sen O’zbeksan, sen matematikani bilmasliging uyat. Chunki sen: Al-Xorazmiy, al-Farg’oniyning avlodisan”, kabi usullar bilan milliy g’oyani singdirish amaliyotini tashkil etish mumkin. Barcha fanlarda ishlatilishi mumkin bo’lgan bunday usullar o’quvchini, avvalo, xushyor tortishga, so’ngra millatidan, davlatidan g’ururlanishga va o’z navbatida ularga loyiq bo’lishga olib boradi.

2) Maxsus mafkuralashgan fanlar (masalan: “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari”)da mafkuraviy amaliyot o’ta noziklik bilan, o’quvchilarga tarix va bugungi kun bilan bog’lab olib borilishi kerakki, ulardan maxsus mafkuralashgan fan “isi” chiqmasligi lozim. Lozim bo’lsa, bunday fanlarni nomini niqoblash zarur. Masalan: “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” fani nomini “Fuqarolik jamiyatini qurish asoslari” nomi bilan o’zgartirilsa, uni mafkuralashgan nomi niqoblanadi va ayni vaqtda fanning mazmuni va maqsadi yanada ravshanlashadi.

3) Ta’lim bosqichlaridagi barcha maxsus mafkuralashgan adabiyotlarni to’liq tahlil etish orqali ulardagи takrorlanishni bartaraf etish kerak. Mazkur adabiyotlarning ichidagi faqat ma’lumot beruvchi mavzularni chiqarib tashlash va “g’oya demasdan g’oyani – singdirish” tamoyiliga asoslangan holda o’quvchilarga ilg’or g’oyalarni singdiruvchi mavzularni kiritish lozim.

4) Mafkuralashgan adabiyotlarda va dars jarayonlarida milliy g’oyani singdirish amaliyoti orqali o’zbek xalqi nuqtai nazarida kim yaxshi inson-u, kim yomon inson, qaysi yo’l to’g’ri-yu, qaysi yo’l noto’g’ri kabi masalalar o’quvchilar audatoriyasi uchun aniq va ravshan tushuntirilmog’i kerak. Bu jarayon, o’quvchilarda ushbu kategoriyalar doirasida ko’nikma va malaka hosil bo’lgunga qadar davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Maktablardagi ta’lim va tarbiya orqali milliy g’oyani singdirish amaliyoti mana shu tarzda tashkillashtirilsa, bugungi kundagi faqat ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar va dars jarayonlari o’rnida haqiqiy mafkuraviy ta’sir vositasi bo’lgan adabiyotlar va dars jarayonlari vujudga keladi.

Milliy g’oyaning yashovchanligini ta’minalash eng avvalo, uni mavjud voqelikdan kelib chiqib, uni singdirish ishini qay darajada tashkillay olishiga bog’liq. Milliy g’oyani singdirish amaliyotining mazkur xususiyati hozirda maktab ta’limda olib borilayotgan mafkura sohasidagi ishlarni yo’lga qo’yishda eng ustuvor tamoyillardan biri bo’lmog’i lozim.

## **2.2. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani mazmunida:**

O‘quvchilarning 7-9-sinflarda «Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari» fanidan egallagan tushuncha, ko’nikma va malakalari 10,11-sinflarda «Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari» fanidan g’oya va mafkuralar tarixi, hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash mafkuraviy muammolar va mafkuraviy immunitetga doir mavzularni o’tish jarayonida rivojlantiriladi.

Maqsad o‘quvchilarni milliy g’oya bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish, ularda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirishni davom ettirish hamda g’oyaviy tarbiyani amalga oshirishdan iborat.

Mazkur fan bo‘yicha o‘qitiladigan mavzularni 7-9-sinflarda o‘tilgan mavzular bilan bog’lab, uzluksizlik va uzviylikni ta’minalash o‘quvchilar tomonidan ushbu fanni mukammal o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

O‘quvchilarni milliy istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalashda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va masofadan o‘qitish kabi usullardan o‘z o‘rnida foydalanish zarur.

O‘quvchilarning milliy g‘oyaga doir mustaqil ilmiy izlanishini tashkil etishda ilmiy ma’ruzalar bilan chiqish, seminar-konferensiya usullaridan foydalanish mumkin.

Ularni yangi g‘oya yechimini yaratish, shaxsiy tajribaga yoki vaziyatga bog‘lash, bahsli g‘oyalarni muhokama qilishga o‘rgatish uchun guruhli bahslar, ma’lum bir vaziyatlar tahlili, savol-javob, so‘rovnomalardan foydalanish maqsadga muvofiq. O‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg‘usini tarbiyalash, axloqiy xislatlarni milliy qadriyatlar asosida tarkib toptirish, rivojlanishning ma’naviy-axloqiy negizlari, komil inson tarbiyasi haqidagi ma’ruzalar, qizg‘in suhbatlar va munozaralarda amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda «Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari» fanining mazmuni quyidagilar bilan asoslanadi:

G‘oya va mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyati. Bunyodkor g‘oya va sog‘lom mafkuraning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati. Vayronkor g‘oya va mafkuralar. Milliy g‘oya va mafkuralarning tarixiy ildizlari. Buyuk allomalarning jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi g‘oyalari va ma’naviy merosi, undan faxrlanish tuyg‘usi. Milliy g‘oyaning umuminsoniy qirralari. Hozirgi dunyoning g‘oyaviy-mafkuraviy manzarasi. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi. Hozirgi davr: geosiyosat va mafkuraviy poligonlar. Mafkuraviy jarayonlarning umumbashariy va mintaqaviy muammolari. Istiqlol va milliy mafkuruning shakllanishi zarurati. Yangilanish va rivojlanishning ma’naviy-axloqiy negizlari. O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li va mafkuraviy muamolar. Taraqqiyotning o‘zbek modeli. Milliy g‘oya va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi. Zararli g‘oyalari va mafkuraviy tahdidlarga qarshi ogohlik va hushyorlik. Xalqaro terrorizm. Mafkuraviy tahdidlarning shakllari va turlari. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi ogohlik va hushyorlik zarurati. Mafkuraviy immunitet haqida Islom Karimov fikrlari yoritiladi.

Milliy g‘oya va mafkuraning mazmun-mohiyati. Milliy mafkuraning asosiy tamoyillari. Milliy mafkura oziqlanadigan umumbashariy qadriyatlar. Milliy mafkuraning bosh g‘oyasi va asosiy g‘oyalari. Milliy mafkuraning maqsad va vazifalari. Milliy mafkuraning o‘ziga xos xususiyatlari. Yoshlarning g‘oyaviy dunyoqarashi va ma’naviy fazilatlari. Mafkuraviy tarbiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati. Yoshlarni g‘oyaviy-mafkuraviy va ma’naviy tarbiyalash. Komil insonni voyaga yetkazishda mafkuraning ahamiyati. Komil inson tushunchasi. Mafkuraviy tarbiyaning uslub va vositalari. Milliy g‘urur kabi masalalar oolib beriladi.

«Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» fani o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida faqat uchinchi yakunlovchi bosqichlarda o‘qitiladi. Shunga ko‘ra, 9-sinfni tamomlab kelgan o‘quvchi uchun bu fanni o‘rganishda 2-2,5 yil uzilish bo‘ladi. Mana shu oraliq masofada o‘quvchilarning milliy g‘oyani o‘rganib borishi uchun ta’lim jarayonida uzviylikni ta’minlash zarurati tug‘iladi. Bu vazifani amalga oshirishda mazkur ta’lim tizimida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari qo‘l keladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» fani o‘zining aniq maqsad va vazifalariga ega. Ta’lim olayotgan yoshlarga «g‘oya» va «ma’naviyat» tushunchalari mohiyati va mazmuni tushuntiriladi. Mafkuralar o‘rtasida kurash keskinlashgan tarixning hozirgi burilish pallasida bunyodkor g‘oyalarning insonparvarlik, adolatparvarlik bilan sug‘orilgan tamoyillariga tayanish o‘quvchi-yoshlar ongiga singdiriladi. Vayronkor g‘oyalar esa hamma davrlarda halokatli oqibatlarga olib kelishini tarixiy misollar hamda zamonamizda yuz berayotgan voqealar asosida tushuntiriladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida o‘quvchilarga g‘oya va mafkuralarning tarixiy shakllari, hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash, Markaziy Osiy: geosiyosat va mafkuraviy jarayonlar, biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz, taraqqiyotning o‘zbek modeli, milliy istiqlol mafkurasining mohiyati va mazmuni, milliy g‘oyaning asosiy tamoyillari, milliy istiqlol

mafkarasining maqsad va vazifalari, bunyodkor g‘oyalar, istiqlol va g‘oyaviy tarbiya, komil inson kabi mavzular asosida o‘quvchilarga bilimlar beriladi.

Nazariy tushunchalar amaliy mashg‘ulot jarayonida mustahkamlanib, bo‘lajak kasb-hunar sohalari bilan bog‘lab, zarur ko‘nikma hamda malakalar hosil qilinib boriladi.

### **2.3. Mutafakkirlar dunyoqarashlarida komil inson tarbiyasi masalalari-milliy g‘oyaning ilmiy-tarixiy ildizi ekanligi**

Komil inson to’g’risidagi fikr va g‘oyalar tasavvuf ta’limotining markaziy o‘rinlaridan birida turadi. Tasavvufda inson mohiyati, yashashdan maqsadi, dunyoviy va ilohiy, zohiriyligi va botiniy masalalar, komil inson va unga etishish yo‘llari, komillikka etishgan ulug‘ zotlar, avliyo, mashoyih va pirlarning ibratli hayoti va faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab masalalar to’g’risida fikr yuritiladi. Darhaqiqat, tasavvuf, uning turli tariqatlari asrlar mobaynida sharoit, zamonalor o‘zgarishiga qaramay inson va uning farovonligi uchun qayg‘uradilar, boylikka ruju qo‘yish, insoniylikni pastga urish, nafsga berilish, odamiylikka zid xatti-harakatlar, axloqsizlik va tuban illatlarga qarshi kurashadilar. Ular inson kamolotiga halaqit beruvchi eng yomon nuqson-nafsniga tiya olmaslik, deb bildilar. “Tasavvufchilar, - deb ta’kidlaydi prof. N.Komilov, - inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan “nafs” yoki “nafsi ammora” deb ataydilar va unga qarshi urush e’lon qiladilar. Mol-dunyo to’plash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, hirsu havas qat’iy qoralanadi, insonni (demakki insoniyatni ham) noqislik va falokatlardan qutqarishning birdan-bir yo‘li – nafsniga o‘ldirib, qanoat bilan halol yashash, irodani chiniqtira borib, insonda insoniylikni, ya’ni ilohiylikni tantana ettirish zarur, deb targ’ib qilindi.”<sup>1</sup>

Nafsga berilganlar mutasavviflar tomonidan qattiq qoralanadi, u insonni ta’magirlik, xudbinlik, faqat o‘z farovonligini o‘ylashga, harom-harish ishlar qilishga, faxsh, makkorlik, firibgarlik sari etaklaydi. Shuning uchun nafsga

---

<sup>1</sup>Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Ёзувчи, 1996. Биринчи китоб, – Б. 153.

berilishni tasavvuf namoyondalari butun noqislik, nuqson va yomonliklarning majmui deb hisoblaydilar.

Dunyodagi butun mayjud narsalar Allohnинг in'ikosidan iborat. Lekin bu birlikni aql yoki hissiy a'zolar orqali idrok qilib bo'lmaydi. Orif yoki so'fiyning qalbida allohdan boshqa narsa bo'lmasligi kerak. Alloh bilan inson o'rtasida farq yo'qolib, ular bir-biriga o'xshaganda, u holda undan boshqa hech nima qolmaydi. Ibn al-Arabiy vahdat (birlik) kasrat (xilma xillik), qadim (ibtido) va hodis (yaratilgan), zohir va botin, avval va oxir kabi qarama qarshi tushunchalarni yagona borliqning ikki tomoni deb hisoblaydi.<sup>1</sup>

Tasavvufda bilim ikki turga, ya'ni zohiriyliga va botiniyga bo'linadi. Zohiriyliga bilish ko'pchilikka xos. U dunyoviy va ilohiy bilimlarni o'z ichiga oladi. Zohiriyliga bilimlarni sezgi va aql yordamida egallash mumkin bo'lsa, botiniy bilimlarni qalb va ruh orqali idrok qilish mumkin. Botiniy bilimlarni ko'proq komillikka erishgan yetuk insonlar, ya'ni orif va avliyolar egallashi mumkin. Shunday qilib, tasavvuf falsafasida orifning Alloh bilan qo'shilishida, uni vasliga, ya'ni intuitsiya muhim o'rinni egallaydi.

Endi tasavvufda komil inson masalasiga kelsak, komil inson – kishilarning ideali, orzu-umidlari bo'lib, bunday shaxs o'zida butun insoniy fazilatlar, yaxshiliklar, xulq-odob bilan bezangan, axloqi pok, dunyoqiy va ilohiy bilimlarni egallagan, nafsiyi tiygan, boylik va mol-mulkka qiziqmaydigan, halol mehnati bilan kun kechiruvchi, g'arib va muhtojlardan yordamini ayamaydigan shaxs hisoblanadi. Mutasavviflardan Boyazid Bastomiy (874 yilda vafot etgan), Ibn al-Arabiy (1165-1240), Aziziddin Muhammad Nasafiy (XIII), Abduqodir Jipiy (1417 yilda vafot etgan), Abdulqodir G'iloni (1077-1166) va boshqalar komil inson ta'limotini har tomonlama asoslab berganlar. Ular asarlarida "komil inson" atamasini qo'llab, tasavvufiy nuqtai nazardan tahlil qilishgan.

Bularning orasida Abdulqodir G'iloniying komil inson to'g'risidagi aytgan fikrlari diqqatga sazovordir. U qodiriya tariqatining asoschisi bo'lib, bir necha

---

<sup>1</sup> Ибн ал-Арабий. Фусу ал-хикам. Байрут, 1946, – Б.335.

asarlarning muallifidir. “Devoni G’avsul A’zam”, “Maktuboti Giloniy”, “Tuhfatul Qodiriya”, “Sirrul asror”, “Maktubot”, “Qasidai g’avsiya” va boshqalar giloniy qalamiga mansubdir. Mutasavvifning “Sirrul asror. Maktubot” asarlari o’zbek tiliga tarjima qilingan.<sup>1</sup> Ushbu asarda Giloniyning komil inson tarbiyasi haqidagi fikrlari bayon qilingan. U komil insonni haqiqiy inson nomi bilan ham ataydi. Olimning nazarida, komil inson ruhi oliy had darajasida yuksalgan inson; Komil inson – faqirlik maqomidagi inson; Komil inson – o’z nafsi jilovlagan inson; Komil inson – tana va ruhi uyg’un inson; Komil inson haqiqatni anglagan inson; Komil inson nuriy inson; Komil inson – ilohiy-laduniy ilmni egallagan inson.<sup>2</sup> Shunday qilib, komillikni eggalamoqchi bo’lgan solik yuqoridagi 7 ta hislatga ega bo’lishi lozim.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) qadimgi Yunonistonning mashhur faylasufi arastu (Aristotel) va ayniqsa, Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning an’analariga sodiq qolgan holda falsafiy taafkkurni nazariy va amaliy falsafa sifatida tavsiflagan. Borliqni mavhum umumnazarriy jihatlarini tadqiq etish nazariy falsafaga taaluqli bo’lsa, amaliy falsafa esa inson faoliyati bilan bog’liq holda axloq-odob, estetik ideal, huquqiy qarashlar kabi muayyan sohalar tizimi tamoyillarini qamrab oladi.

Ibn Sinoning axloqiy qarashlari uning siyosiy, huquqiy va estetik g’oyalari bilan uyg’unlashib ketgan. Ular mutafakkirning dunyoqarashida o’ziga xos e’tiborli salohiyatga ega. Allomaga ko’ra, inson zoti hayvonlardan tubdan farqlanib, bir-biridan ajralgan, tanho holda baxt-saodatga erisha olmaydi. U o’zining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini boshqalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Hayotni davom ettirish maqsadida odamlar mehnat taqsimotiga asoslangan jamoalarga birlashishga majbur bo’ladilar. Hamkorlikka erishish esa qonun va adolatning qaror topishini taqazo qiladi. Qonun va adolat tantanasini

<sup>1</sup> Шайх Саййид Абдулқодир Гилоний. Сиррул асрор. Мактубот. Таржимон Отабек Жўрабоев. – Т.: Мовароуннахр, 2005

<sup>2</sup> Наврўзова Г.Н. Зоиров Э.Х., Юнусова Г.С. Тасаввуфда инсон ва унинг камолоти масаласи. – Т.: Фалсафа ва хукуқ институти нашриёти, 2006. – Б.118-119.

ta'minlash uchun hukmdorlar zurur bo'lib, ular odamlarga ta'sirchan nutq bilan murojaat eta bilishi va ularni qonunga rioya etishlarini talab qila olishlari zarur sanaladi. Ular bu borada kishilarni va ularning qrashlarini boshqarishsiz qoldirmasliklari lozim, aks holda, ular o'rtasida o'zaro nizo va kelishmovchiliklar paydo bo'ladi. Natijada, har kim o'ziga foydali narsani adolatli, zararli narsani esa adolatsizlikning namunasi deb hisoblashi mumkin.<sup>1</sup>

Hukmdor bo'lish o'ta ma'suliyatli burchdir. Jamoani boshqarish, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatib berishdan avval bunday shaxs o'z xulq-atvorini o'ziga itoat ettira olgan bo'lishi shart. Axloq-odobda barcha fuqarolarga ibrat-namuna bo'la oladigan insongina boshqalarga hukmdor bo'lishi mumkin. Dono rahbarlar, e'tiborli hukmdorlar o'z fuqarolarini ezgu niyat, ezgu ishlarga odatlantirib borib, ularning o'zlarini yuksak fazilatlar sohiblari qilib tarbiyalaydilar. O'zgalar esa odamlarda xunuk illatlarning shakllantirishga yo'l ochib berib, ularning o'zlarini betavfiq kimsalarga aylantiradilar.

Inson barcha jonzotlar kabi o'z hayotini hav-xatarlardan muhofaza qilishga intiladi. Bordiyu, jamiyatda hamma odamlar boy-badavlat bo'lib qolsalar, o'zaro to'qnashuvlar, nizolar natijasida jamiyat hayoti, qonun ustuvorligi va adolat me'yorlari tanazzulga yuz tutadi. Barcha odamlar yoppasiga qashshoqlarga aylanib qolgan taqdirda esa bunday vaziyat tufayli ular halokatga uchragan bo'lar edilar. Demak, Ibn Sinoga ko'ra, har bir odam jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy maqomga ega ekanligidan mamnun bo'lmosg'i lozim. Boy-badavlat kishi erishgan maqomi orqali unda etishmaydigan aql-zakovat va ta'lim-tarbiya kemtikliklarini qoplaganligiga, ma'rifatli kambag'al esa, o'z holatini uning ahvoli bilan qiyoslab ko'rib, unga nisbatan bir muncha durustroq mavqega ega ekanlgiga ishonch hosil qilishi lozim. O'z kasb-kori orqali kundalik egulik nonini topayotgan usta cheksiz vakolatlarga ega hukmdorga, katta boyliklar sohibi sanalmish boy kishiga hech qachon ortiqcha havas qilib yashamaydi,- deb uqtiradi Ibn Sino.

---

<sup>1</sup> Ибн Сино. Китоб ан-нажот. Қохира, 1938. – Б.303. (араб тилида).

Ijtimoiy adolat – bu jamiyat a'zolarini turli yo'l va vositalar orqali teng holatda saqlashdan iborat emas. Kishilarning ijtimoiy faolligini mensimaslik, haqiqiy mehnatkashni boqibeg'am boqimandadan farqlamaslik jamiyat ravnaqining zavolidir. Lekin aynan shu masalada ham allomaning insonparvarligi yaqqol sezilib turadi. U o'zining "Tadbir-e manzil" asarida "xizmatkorlarni o'zinga yaqin tut, ularni siltab tashlama, ularning ehtiyojlari to'g'risida g'amxo'rlik qil, ularga nisbatan qahr-g'azabnok bo'lma, ular bilan xuddi do'stlar bilan bo'ladigan munosabatda bo'lgin, ularning baxtsizlik onlarida yolg'iz qoldirma, chunki ular ham insonlardir",<sup>1</sup> - deydi.

Mutafakkir Qur'oni karim va hadisi sharif an'analariga to'la amal qilgan holda nikoh masalasiga alohida e'tiborini jalb qiladi. Hukmdor birinchi galda nikoh to'g'risidagi qoidalarga to'la-to'kis amal qilishining o'ta muhim ekanligini aslo ununmaslik lozim, chunki nikoh munosabatlari inson zotining uzlksiz davom etishini ta'minlaydigan muhim omildir. Ijtimoiy hayotda doimo tekinxo'rlik, o'g'rilik, sudxo'rlik, qimorbozlik va boshqa engil-elpi vositalar bilan tirikchilik qilish qoralangani singari, fohishalik, oila oldidagi o'z muqaddas burchiga bo'lgan xinoyat ham aslo jazosiz qolmasligi lozim. Chunki bunday sa'y-harakatlar avlodlarni etishtirishda, ularning keljakda jisman va ruhan tetik bo'lib tarbiyalanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va eng muhimi, oila qurish va er-xotinning o'zaro munosabatlariga o'nglab bo'lmaydigan putur yetkazadi. Bundan tashqari, er-xotin o'rtasidagi munosabatlarning qaltisligi odamlarning imon-e'tiqodini, jamiyat ma'naviy-ruhiy holatini izdan chiqaradi, uning tanazzulini tezlashtiradi.

Shunday ekan, mutafakkir nikohni bekor qilish holatlarini imkon boricha murakkablashtirishni maslahat beradi. Buning uchun ayollarga nikohni bekor qilishni qozilar hukmi orqali hal qilish, erkaklarga esa bunda sezilarli miqdorda jarima to'lashni joriy qilish orqali ularning oila, jamiyat oldidagi mas'uliyatini shakllantirish zarur. Bundan tashqari, mol-mulkka merosxo'rlik va nasl-nasab masalalarida har qanday o'zaro kelishmovchiliklar va yuzaga kelishi mumkin

---

<sup>1</sup> Абу Али ибн Сино. Тадбир-э манзил. Техрон, 1319. С.Хуршиди. – Б.51.

bo'lgan ixtiloflarning oldini olish maqsadida nikoh ochiqchasiga o'tkazilishi shart. Er-xotin qonun asosida farzandlarni yaxshi tarbiyalashni, farzandlar esa ota-onani hurmat qilishlari va ularga itoat etishlari mas'uliyatini o'z zimmalariga oladilar, chunki ular farzandlar borlig'ining sababchilaridir.

Ibn Sinoning "Hikmat buloqlari" ("Uyun ulhikma") asarida ta'kidlashicha, axloq-odob fani aslida odamlarning baxt-saodatli bo'lishini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlarni aniq-ravshan ko'rsatib beruvchi amaliy falsafadir. U kishilar xulqi, fe'l-atvori ustidan rahbarlik qiladi. Unga "jon qulog'i"ni tutgan va amal qilgan kishilar faqatgina o'zлari uchun yashamasdan, balki boshqalar, jamiyat va uning manfaatlari uchun yashashni maqsad qilib qo'yishlari lozim. Kishilar o'zaro do'stinoq bo'lib yashashi, o'zlarida insonparvarlik hislatlarini namoyon etishlari, kamtar-kamsuqum, tejamkor, kuchli irodali bo'lishi muhimdir. Agar sahifalarida kishilardagi odamshavandalik, sahiylik, tadbirkorlik, do'stlarga hurmat-ehtiromli va muruvvatli, dushmanlarga nisbatan qahrli bo'lish hislatlarni shakllantirish haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.<sup>1</sup>

Axloq-odob fan sifatida o'ziga xos kategoriyalarga tayanadi. Ibn Sion axloq kategoriyalari sifatida yaxshilik va yomonlik, rohat-uqubat, adolatlilik va adolatsizlik, iffat va surbetlik, sahiylik va baxillik, donolik va johil-nodonlik, kamtarlik va takabburlik, mehr-oqibatlilik va shafqatsizlik, ezgu niyatilik va g'arazgo'ylik, halollik va o'g'rilik, shijoatlilik va qo'rkoqlik, to'g'ri so'zlik, rostgo'ylik va yolg'onchilik, himmatlilik, xassislik, ig'vogarlik, munofiqlik, fisqu-fasod kabilarni nazarda tutadi.

Ibn Sinoning ta'lim berishicha, axloqiy fazilatlar va ilm o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Bordan yo'q bo'lmaydi, yo'qdan esa bor bo'lmaydi deganlaridek, imkoniyatsizlik tasodifan imkoniyatga aylanib qolmaydi. Alloh zaruriy bir tarzda inson vujudini, uning ichki olamini o'z nuri ila munavvar qildi. Natijada, ilm va axloqiy fazilatlar muayyan qadriyatlarga aylandi va yaratganning karami sifatida

---

<sup>1</sup> Жонматова Х. Таълим тарбия хақида. – Т.: 1980. – Б.14.

namoyon bo'ldi, uning qudrati va mehribonligidan insonlarga saboq beradi, chunki barcha mavjudotlar, mo'jizaviy hodisalar aniq maqsadni ko'zlab yaratilgan.

Inson zoti Tangri tomonidan ojiz bir mahluq sifatida yaratilgan. U jismonan ko'pchilik hayvonlar bilan raqobatga kirisha olmaydi. Lekin shunga qarmasdan, u barcha hayvonlar orasida e'tiborli o'rinn egallaydi, ilohiy karamdan bahramand bo'lган, olamda tartib o'rnatish va uni obod qilishga tegishli vakolatlarni qo'lga olishga muyassar bo'lган zotdir. U o'zining tashqi qiyofasi, tuzilishi, jussasi bilan hayvonlardan ajralib turadi. Ko'p hollarda inson zotining jismonan kuchli, baquvvat hayvonlardan ustunligining boisi shundaki, Tangri unga shunday quvvatni in'om etdiki, u orqali ezgulik, yaxshilik ("xayr")ni yomonlik ("sharr")dan, aqliy kamolot, yetuklik ("rashad")ni yolg'on-yashiq, adashuv ("gumrohiy")dan farq qila olish imkoniyati paydo bo'ldi.<sup>1</sup> Demak, inson aql-zakovati sohibi ekanligi, tabiyatda o'ziga xos o'rinn egallashi tufayli barcha tirik va notirik mavjudotlar saltanatiga hukmronlik qilish huquqini qo'lga kiritishga muyassar bo'ldi. U aql nuri orqali tabiatda sodir bo'ladigan tasodifiy hodisalar, har qanday o'zgarishlar hukmidan ozod, o'z amaliy va nazariy faoliyatini "donolik tarozisi" talablariga bo'ysundirgan shaxs martabasiga ko'tariladi.

Aql-farosatning mavjudligi boisi inson hayoti, kishilarning turmush tarzi hayvonlarning tashqi muhitga moslashishi va hayot kechirishi tarzidan tubdan farq qilib turadi. U borgan sari o'ta mazmunli, yaxshi bo'la boradi. Ilmga cheksiz rag'bat, sabr-qanoat, kundalik hayot qiyinchiliklarini, mashmashalarini sabr-bardosh ila enga olish, maqsad sari doimiy intilish, o'z mehnat samarasini kutish aql, donolik bilan hamkor va hamnafasdir. Shu bilan bir qatorda inson yuksak axloqiy qadriyatlarning bevosita ijodkori hamdir.

---

<sup>1</sup> Абу Али ибн Сино. Тадбир-э манзил. Техрон, 1319. С.Хуршиди. – Б.4.

## XULOSA

O'zbekiston tanlangan mustaqil taraqqiyot yo'li huquqiy demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishi vazifalarini amalga oshirishda milliy g'oya – insonlarni mushtarak maqsadlar bilan bog'lab turuvchi, ularni yo'naltiruvchi va safarbar etuvchi ma'naviy kuchga ega. Ayni vaqtida yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yanada yaxshilash, ming yillar mobaynida sayqallanib kelayotgan ibratli an'ana va qadriyatlarni targ'ib etish borasida ko'plab tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, joylarda qiziqarli ko'rik-tanlovlar, ko'rgazmalar, uchrashuv, muloqot va davra suhbatlari uyushtirilmoqda, ilmiy risolalar chop etilmoqda, ommaviy axborot vositalarida rang-barang materiallar e'lon qilinmoqda.

Yoshlar orasida Milliy g'oyani o'rganish texnologiyalari ham keng qamrovli bo'lib, doimo o'zgarib, yangilanib, takomilllashib borishi davr talabi hisoblanadi. Yoshlar milliy g'oya targ'ibotida inson omili hal etuvchi ahamiyatga ega. U foydalananayotgan texnologiyalar, mexanizm, uslub va vositalar targ'ibotning samaradorligiga, milliy g'oyani insonning ishonch va e'tiqodiga aylantirishga ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4.5. ustuvor bandida:

- Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;
- jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;
- o'rtalik maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb qilish;

- yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalg etish;
- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlari va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish to'g'risida batafsil keltirib o'tilgan.<sup>1</sup>

Dunyoda “mafkuraviy kurash davom etayotgan” sharoitda “targ’ibot texnologiyalari” yovuz kuchlar qo’lidagi “mafkuraviy tahdid vositasi”ga aylanishi ehtimoli saqlanib kelmoqda. Uning oldini olish uchun zamonaviy texnologiyalardan milliy g’oya targ’ibotida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy g’oya maqsadlarini, jamiyatdagi fuqarolarning har birining ongida ijtimoiy –ma’naviy ehtiyoj sifatida anglanishi mustaqil taraqqiyotni kafolatlab beradi. O’zligimizni anglashga, asrab-avaylashga xizmat qiladi. Shu ma’noda targ’ibot texnologiyalari ezgulikka xizmat qilishi kerak.

Bugun insoniyatning aql-zakovati bilan fan-texnika sohasida muhim ixtiolar amalga oshirilmoqda. Undan ezgu maqsadlar yo’lida foydalanish o’ziga xos axborot almashinuvini, insoniyat uchun qulay sharoit yaratib beradi. Bu insonning ma’naviy olamini boyishiga, dunyo xalqlarining erishayotgan yutuqlaridan xabardor bo’lishiga, madaniy hamkorlikning rivojlanishiga, mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurilishiga xizmat qiladi.

Ammo, hamma insonlar ham bunday intellektual, ahloqiy va ma’naviy-mafkuraviy ta’sir kuchiga ega bo’lgan targ’ibot texnologiyalaridan ijobjiy maqsadlarda foydalana olmayaptilar. Shuning uchun ham inson undan foydalanishda ezgu maqsadli bo’lishi, yomon ahloqiy qadriyatlardan o’zini tiyishi va insonlarni bir-biri bilan bog’lab turadigan ma’naviy-ahloqiy qadriyatlar,

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида Фармони Т.: 2017. – URL: <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2> (очилган муддати 05.03.2017 )

umuminsoniy g'oyalar ham borligini esdan chiqarmasligi lozim. Bu bugungi dunyoni saqlab qoladigan, jamiyatni yovuz va tajovuzkor g'oyalar ta'siridan qutqara oladigan va oxir oqibatda insonni bu dunyoda bir-biri bilan inson sifatida muloqotda bo'lib yashay olishini ta'minlay oladigan yuksak ma'naviy qadriyatlar mavjudligini anglash, unga tayanish muhim.

Bugun zamonning shiddati tez. U faqat oldinga qarab intilmoqda. U orqada qolayotganlarga boqmaydi. Kimki zamon bilan hamqadam bormoqchi bo'lsa, ertayu kech ishlashi, intilishi, harakat qilishi darkor. Ta'limga bag'ishlangan xalqaro konferentsiyaning 2012 yilda, aynan Toshkentda o'tgani, dunyodan 48 davlat vakillari kelib, bizdan tajriba o'rgangani, mamlakatimizning barcha zamonlarda ham murakkab bo'lgan ta'lim tarbiya sohasida zamon bilan hamqadam borayotganini ko'rsatadi. Komil inson g'oyasi milliy mafkuramizning asosiy g'oyalaridan biri. U yoshlarimizning intellektual salohiyatini vatan ravnaqi, xalq farovonligiga yo'naltiruvchi g'oyaviy poydevor vazifasini bajarmoqda. Ular O'zbekiston uchun sport, intellektual, texnologik, ijod maydonlariga kirib, g'olib bo'lmokdalar. Demak, «Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish — ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim» (Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch) degan azmu shijoat qaysi mamlakatda ustuvor bo'lsa, ular ham biz erishayotgan marralarga erishishi mumkin. Chunki har bir mamlakatda barqaror taraqqiyot va modernizatsiyani amalga oshiruvchilar - ajdodlariga qaraganda kuchli, bilimli va dono yangi avlodlardir. Bugun yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarga ega, bilimli, samarali mehnat qilishga qodir fuqarolar jamiyatning eng muhim kapitali, uni harakatga keltiruvchi kuchga aylanib bormoqda. Aynan shu bois XXI asr - intellektual bilimlar asrida inson kapitaliga investitsiyalar yo'naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlarga yuksak taraqqiyotga erishishi mumkin. Faqat tom ma'nodagi bilimli jamiyatgina zamonaviy tahdid va muammolarni yengib o'tishga qodir bo'ladi.

Har qanday davlat o'z mamlakatining intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishdan manfaatdor bo'lmosg'i kerak. Globallashuv davrida bilimlilik mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish va uning milliy boyligini ko'paytirishning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Aholining yuksak ma'naviy darajasi esa odamlarda huquqiy madaniyatni, erkin va demokratik huquqiy davlatda yashash hamda mehnat qilish qobiliyatini shakllantirish, o'z huquq va erkinliklarini anglash, ulardan shaxs, davlat hamda jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish imkonini beradi.

**Bitiruv malakaviy ish mavzusi bo'yicha olib barilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagilarni tavsiya etish mumkin:**

- ta'lim muassasalarida bolalar va talabalarining yoshiga mos ravishda milliy g'oya va mafkurani singdirishda differentsial pedagogik-psixologik dasturni yaratish;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi-talabalar ongida milliy g'oya va istiqlol mafkurasinishakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;
- O'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy g'oya va mafkura g'oyalarini teran aks ettirish;
- Maktab, akademik litsey, kasb-xunar kolleji, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish;
- Pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilmlarini chuqurlashtirish.

Ta'lim-tarbiyaning har bir alohida bosqichi o'z navbatida milliy g'oyaning yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o'ziga xos omillarini nazarda tutadi.

## **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Rahbariy adabiyotlar.**

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. - Тошкент., Ўзбекистон, 1992.-128 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. – Т.: Ўзбекистон, 1995.- 47 б.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёsat, мафкура. Т.1. - Тошкент., Ўзбекистон, 1996.-364 б.
4. Каримов И.А. Ватан саҷдагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. -Тошкент., Ўзбекистон, 1996. -366 б.
5. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. - Тошкент., Ўзбекистон, 1997. -384 б.
6. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни халқ, миллатни миллат қилишга хизмат қилсин. -Тошкент., Ўзбекистон, 1998. -377 б.
7. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.7.-Тошкент., Шарқ, 1998.-393 б.
8. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон. 1998.-56 б.
9. Каримов И.А Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. -Тошкент., Ўзбекистон, 1999. - 47 б.
10. Каримов И. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. – Т., Ўзбекистон. 1999. - 413 б.
11. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлида, Т.4. – Т.: Ўзбекистон, 1999.- 176 б.
12. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси -Тошкент., Шарқ, 1999. -184 б.
13. Каримов.И. А. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Т.: Ўзбекистон 2000. -30 б.

14. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9. –Т.: Ўзбекистон. 2001.-Б. 440 б.

15. Каримов И.А. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар рисоласига сўз боши. Т.9. - Тошкент., Ўзбекистон, 2001. 220-224 б.

16. Каримов И.А. Юксак маънавият –енгилмас куч. -Тошкент., Маънавият, 2008. -123 б.

17. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. - Toshkent., O'zbekiston, 2010. -144 b.

18. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent., O'zbekiston, 2011. -300 b.

19. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliv saodatdir. -Toshkent., O'zbekiston, 2015. -302 b.

20. Karimov I.A. Ozodlik havosidan to'yib nafas olgan xalq o'z yo'lidan hech qachon qaytmaydi. -Toshkent., O'zbekiston, 2016. -28 b.

21. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. -Тошкент., Ўзбекистон, 2016. -56 б.

22. Мирзиёев Ш.М. Таңқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. -Тошкент., Ўзбекистон, 2017. -104 б.

23. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. -Тошкент., Ўзбекистон, 2017. - 48 б.

24. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Тошкент., Ўзбекистон, 2017. -488 б.

## **II. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va qonun osti xujjatlari.**

2.1. Мирзиёев Ш.М. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича харакатлар

стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли [Фармони](#). Манба: «Халқ сўзи», 2017 й., 28 (6722)-сон; ЎР КХТ, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

2.2. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”. (1997 йил 29 августда қабул қилинган). Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент., Шарқ, 1997.

2.3. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни (1997 йил 29 августда қабул қилинган). Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент., Шарқ, 1997.

2.4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 18 январда қабул қилинган «Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар фани бўйича таълим дастурларини яратиш ва республика таълим тизимига жорий этиш тўғрисида»ги Фармойиши//Маърифат, 2001 йил 20 январ.

2.5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 25 августда қабул қилинган «Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги қарори//Халқ сўзи, 2006 йил 26 август.

### **III. Maxsus adabiyotlar.**

3.1. Абилов. Ў.Миллий ғоя: маънавий омиллар – Т.: Маънавият, 1999. - 57 б.

3.2. Иброҳимов А, Султонов Х. Жўраев К. Ватан туйғуси. – Т.: Ўзбекистон, 1996 й.-396 б.

3.3. Махмудов.Т Мустақиллик ва маънавият- Т.: Шарқ, 2001.-52 б.

3.4. Milliy mafkura-xalq tayanadigan kuch. Т. “Ma’naviyat”, 2000.-215 b.

3.5. Milliy g’oya tushunchasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Т.: Yangi asr avlodi, 2001.-183 b.

3.6. Mustaqillik: Izohli ilmiy – ommabop lug’at. Т. “Sharq”, 1998. - 320 b.

3.7. O’zbekistonning yangi tarixi uchinchi kitob. – Т.: Sharq. 2000. - 560 b.

#### **IV. Даврий нашрлар**

4.1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 18 январда қабул қилинган «Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар» фани бўйича таълим дастурларини яратиш ва Республика таълим тизимига жорий этиш тўғрисида»ги Фармойиши. //Маърифат. 2001 йил 20 январь.

4.2. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan ham qadam bo`lib yashash-bugungi hayotning o`tkir talabi.

4.3. I.Karimovning interv'yusidan kelib chiqadigan xulosalar. //O`zbekiston ovozi.-2012.-15 may.

4.4. Абдуллаев М. Маданият маънавият, маърифат. //Мулоқат журнали, 1998, 3-сон, -Б.11-13.

4.5. Пўлатов X. Ўзбек мафкураси. //Мулоқат журнали, 1991, 6-сон, -Б.12-14.

4.6. “Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo’lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog’li faol munosabatda bo’lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog’liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak.”// Мулоқот журнали, 1999. № 4. –Б.21.

4.7. Рахимбобоев Н, У. Қудратов. Инсонийлик-халқ баҳтини ўйлашдир. (мустақиллик мафкураси ва ўзликни англаш). //Гулистон журнали, 2000, 66-сон, -Б.14-15.

#### **V. Internet materiallari**

5.1. WWW Ziyonet. Uz

5.2. –URL: <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2> (очилган муддати 05.03.2017 )

5.3. [fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-v3.html?page=1](http://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-v3.html?page=1)

5.4. [http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact\\_id=3026246](http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3026246)

## ILOVA (TAYANCH SO'ZLARI)

<b>№</b>	<b>О'ЗВЕКЧА</b>	<b>РУССКИЙ</b>	<b>ENGLISH</b>
1	Yoshlar	молодежь	the youth
2	Ta'lim	образование	education
3	O'qitish texnologiyasi	технологии обучения	Technology training
4	Zamonaviy ta'lim	современное образование	Modern education
5	Innovatsion faoliyat	инновационная деятельность	Innovation activity
6	Interfaol	интерактивный	interactive
7	Keys-stadi	тематическое исследование	topical research
8	Loyihalashtirish	Дизайн	design
9	Milliy g`oya	национальная идея	National idea
10	Madaniyat	культура	Culture
11	Aqliy hujm	умственная нападению	mental attacked
12	Ma'naviyat	духовность	spirituality
13	Klaster	Кластер	Cluster
14	Mahorat	Мастер	master
15	Texnologiya	технология	technology
16	Metod	Метод	method
17	Pedagogika	педагогический	pedagogical
18	Ta'lim shakllari	формы образования	Forms of education
19	Muammoli ta'lim	образования	Of education
20	Pedagogik texnologiya	обучение технологии	Learning technology
21	Ta'lim vositalari	инструменты обучения	Learning tools
22	Ta'limning texnik vositalari	образование услуги	Education services
23	Tarqatma materiallar	рекламные материалы	promotional materials
24	Yordamchi ta'lim vositalari	мое образование	my education
25	Shaxs	Человек	human
26	Axborot	информация	information
27	Ilm	образование	education
28	Milliy ma'naviyat	национальная духовность	National spirituality
29	Jonkuyarlik	заботливая	Thoughtful
30	Auditoriya	аудитория	Auditorium